

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA  
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**Turizm fakulteti**

**Turizm kafedrası**

**Himoyaga ruxsat etildi**

Kafedra mudiri \_\_\_\_\_ i.f.n., dots. H.R.HAMROEV

« \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2017 yil

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Mavzu: Region turizmini rivojlantirishda hunarmandchilik  
mahsulotlarini ishlab chiqarishning o`rni**

**Bajardi: 5610200 – “Mehmonxona xo`jaligini tashkil etish va boshqarish”  
ta`lim yo`nalishi 4-bosqich 3-1MX-13 guruhi bitiruvchisi**

**Dilbar Rasulova Nodirovna**

**Ilmiy rahbar:**

**i.f.n., dots. H.R. Hamroyev**

**Himoya sanasi**

**D.A.K.ning bahosi**

« \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2017yil

**D.A.K.ning xulosasi** \_\_\_\_\_

**Buxoro – 2017**

# **REGION TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA HUNARMANDCHILIK MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHNING O`RNI**

## **KIRISH**

### **I BOB. TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA HUNARMANDCHILIKNING O`RNI**

- 1.1. O`zbekistonda mavjud hunarmandchilikning turlari, tarixi va tavsilotlari
- 1.2. O`zbekistonda hunarmandchilik san`atiining rivojlanish holati

### **II BOB. BUXORO HUNARMANDCHILIGINING REGION TURIZMDA AHAMIYATI**

- 2.1. Milliy turizm jozibadorligini shakllantirishda hunarmandchilikning o`rni
- 2.2. Buxoroda yo`qolib borayotgan hunarmandchilik turlarini qayta tiklash amaliyoti

### **III BOB. BUXORO HUDUDIDA TURIZMNI YANADA RIVOJLANTIRISHDA HUNARMANDCHILIK SALOHIYATIDAN FOYDALANISH YO`LLARI**

- 3.1. Hududda milliy hunarmandchilikning rivojlanish holati
- 3.2. Milliy hunarmandchilik mahsulotlarimizning sayyohlar tomonidan baholanishi
- 3.3. Buxoroda turizmni rivojlantirishda hunarmandchilik suvenirlerini ishlab chiqarish va ularning brendini yo`lga qo`yish
- 3.4. Buxoroda turizmni rivojlantirishda hunarmandchilikni ravnaq topish yo`llari
- 3.5. Buxoro hunarmandchiligini dunyo miqyosida tanitishda master klasslardan foydalanish

## **XULOSA**

## **ANNOTASIYA**

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

## **ILOVALAR**

## **Kirish**

**Mavzuning dolzarbligi** - Turizmni rivojlantirishda hunarmandchiligimiz nechog`lik muhim ekanligi, bu yo`l bilan chet ellik sayyohlarni ko`proq jalb etish mumkinligi rejasini ishlab chiqish, hunarmandchilik mahsulotlarining brendini yaratgan holda suvenir mahsulotlarini ishlab chiqish, turli xil yarmarkalar, festivallar, ko`rgazmalar va mahorat darslarini tashkil etish ushbu mavzuning dolzarbligini izohlaydi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017—2019-yillarda Buxoro shahri va Buxoro viloyati sayyohlik imkoniyatlarini jadallik bilan rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarori asosida Buxoro hududida 10 gektardan kam bo`lmagan “Boqiy Buxoro” nomli erkin turistik zona yaratiladi.

Loyihaga binoan xorijiy sayyohlarga to`liq dam olish imkoniyatini yaratish maqsadida ushbu zona va shaharning tarixiy qismida aholi uchun bepul Wi-Fi tizimi, turli darajada xizmat ko`rsatish qulayliklariga ega mehmonxonalar, ko`ngil ochar va savdo muassasalari, xususan, 500 kishilik amfiteatr, bouling-klublar, raqs maydonlari va karaoke, milliy taomlar va dunyoning mashhur oshxonalarini taqdim etuvchi bar, kafe, restoranlar, suvenirlar va boshqa mahsulotlar do`konlari qurilishi ko`zda tutilmoqda.

Bundan tashqari, Buxoro shahrining tarixiy qismida (“Shahriston” bozori hududida) ikki qavatli uylardan iborat hunarmandlar dahasi va yopiq bozor yaratiladi. Shuningdek, ushbu dahada an`anaviy ustaxonalar, milliy suvenirlar, zardo`zlik mahsulotlari, kitoblar, meva va sabzavotlar, shirinlik va sayyohlarni jalb etuvchi boshqa mahsulotlar sotiluvchi do`konlar ochiladi.

Buxoroni “Tabarruk Buxoro – muqaddas islom markazi” shiori ostida noyob shahar-muzey, sharq marvaridi sifatida targ`ib qilish rejalashtirilmoqda. Hozirgi kunda turizm dunyodagi ko`pgina davlatlarning daromad manbai sifatida ularning milliy iqtisodiyotida asosiy o`rinni egallaydi. Bizning mamlakatimizda ham mazkur tarmoqni jadal rivojlantirish imkoniyatlari beqiyos.

SHu sababli O`zbekiston mustaqillikka erishgandan so`ng turizmning rivojlanishiga katta ahamiyat berilmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimizda 4 ta turistik hudud tashkil etilgan bo`lib, Buxoro viloyati ham bu tuzilmaga alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa Buxoro viloyati tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishda juda katta potentsialga ega. Viloyatimizda mavjud bo`lgan xalq hunarmandchiligining xilma-xil turlari, tarixiy obidalar o`ziga xos milliy urf odatlar, xorijiy turistlarni jalb qilish uchun noyob turistik obye`kt bo`lib xizmat qilib kelmoqda.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Tadqiqotning maqsadi** – Region turizmini rivojlantirishda hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning o`rnini ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Bitiruv malakaviy ishidagi ilmiy izlanishlarning asosiy vazifalari quyidagilarda iborat:**

- Yo`qolib borayotgan hunarmandchilik mahsulotlarini qayta tiklash amaliyotini o`rganish;
- Buxoroda turizmni rivojlantirishda noyob hunarmandchilik suvenirlarini ishlab chiqarish;
- Hududda milliy hunarmandchilikning rivojlanish holatini o`rganish;
- Hunarmandchilik mahsulotlarini brend ostida ishlab chiqarish jarayonini o`rganish;
- Buxoroda turizmni rivojlantirishda hunarmandchilikni ravnaq topish strategiyalarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob`ekti va predmeti.** Tadqiqotning ob`yektini Buxoroda mavjud hunarmandchilik mahsulotlari sifati hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti esa bu sohani turizmdagi turistik obyekt darajasiga chiqarish.

**Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati.** Bitiruv malakaviy ishda yoritilgan barcha uslubiy va amaliy tavsiyalar turizm sohasida hunarmandchilik va hunarmandchilik mahsulotlarining o`ziga xos xususiyatlari samaradorligini oshirish yo`nalishlarini aniqlash uchun xizmat qilishi mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishi tarkibi va tuzilishi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, uning maqsadi va vazifalari yoritilgan. Tadqiqotning xulosa va takliflar qismida barcha nazariy va amaliy tushunchalar umumlashtirilgan.

Birinchi bob – “Turizmni rivojlantirishda hunarmandchilikning o'rne”, - deb nomlanadi. Bunda, O'zbekistondagi barcha hunarmandchilik turlari va ular haqida ma'lumot berilgan. Ikkinchi rejada esa O'zbekistonda hunarmandchilik san'atining rivojlanish holati haqida qisqacha ma'lumotlar berilib o'tilgan.

Ikkinchi bob – “Region turizmida Buxoro hunarmandchilikning tutgan o'rne”, - deb nomlanadi. Unda hunarmandchilik rastalaridagi hunarmandchilik mahsulotlari haqida, Milliy turizm jozibadorligini shakllantirishda hunarmandchilikning o'rne, Buxoroda yo'qolib borayotgan hunarmandchilik turlarini qayta tiklash amaliyoti, Buxoro zardo'zligini dunyo miqyosida tanitish yo'llari va Buxoro hududida turizmni yanada rivojlantirishda hunarmandchilik potensialidan foydalanish yo'llari haqida to'xtalib o'tingan.

Uchinchi bobda esa Buxoro hududida turizmni yanada rivojlantirishda hunarmandchilik salohiyatidan foydalanish yo'llari haqida yoritilib o'tilgan.

### **Bitiruv malakaviy ishi bo'yicha nashr qilingan ishlar**

“Turizm infratuzilmasini rivojlantirishning metodologik, uslubiy asoslarini takomillashtirish” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Maqolalar to'plami, Samarqand, 21-23 aprel, 2014, 88-92b.;

“Buxoronoma” gazetasi viloyat nashri, 10-sentyabr 2014y., №73, “Muzeylar haftaligi”;

[www.adolat.uz](http://www.adolat.uz) - “Yosh hunarmandlar yangi BPTga birlashdilar”;

“Buxoro oqshomi” gazetasi, 2-oktabr 2014y., №39(1077), “Zar ip tarixi” nomli maqola.;

“Buxoro Dilbari” gazetasi, 2-oktabr 2014y., №39 (299), “Oilaviy hunarmand zardo'zlar”.

“Bekajon” oilaviy gazeta, 11-dekabr 2014y., №99, “Hunarni san`at darajasiga ko`targan xonadon”;

“Buxoroda turistik erkin iqtisodiy hududni yaratish imkoniyatlari va rivojlanish istiqbollari” mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya, Maqolalar to`plami, Buxoro, 27.05.2017. 573-b.

Maktab davrida qo`lga kiritgan faxriy yorliqlar va maqtov yorliqlarining soni 14ta.

2013-2017 o`quv yiliga qadar to`plagan diplom va sertifikatlar ro`yxati ko`rsatiladi va ilova qilinadi.

### Diplom va sertifikatlar ro`yxati:

№	Yorliq nomi (Diplom, Sertifikat)	Qaysi tashkilot tomonidan o`tkazilgan?	Qachon?	Qayerda?	Aynan qanday o`rinni egallagan?
1.	Diplom	O`zbekiston Respublikasi Buxoro viloyati Vobkent tuman hokimligi, “Hunarmand” uyushmasi	2013 yil	Vobkent tumani	Navro`zi olam ko`rik tanlovi qatnashchisi
2.	Diplom	O`zbekiston Respublikasi Buxoro viloyati Vobkent tuman hokimligi, “Hunarmand” uyushmasi	2014 yil	Vobkent tumani	O`zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun “Tashabbus-2014” ko`rik tanlovi shahar bosqichida “Eng yaxshi hunarmand” nominatsiyasi g`olibi
3.	Diplom	O`zbekiston Respublikasi Buxoro viloyati hokimligi	2014 yil	Buxoro shahar	O`zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun “Tashabbus-2014” ko`rik tanlovi shahar bosqichida “Faol ishtirok etganligi uchun”
4.	Faxriy yorliq	O`zbekiston Respublikasi Buxoro shahar hokimligi	2014 yil	Buxoro shahar	“Yuksak ma`naviyatli avlod” festivali shahar bosqichi “Eng iqtidorli hunarmand” nominatsiyasi g`olibi
5.	Diplom	Buxoro viloyati hokimligi v.b., Viloyat ma`naviyat va ma`rifat kengashi raisi	2014 yil 3 may	Buxoro shahar	“Yuksak ma`naviyatli avlod” festivali viloyat bosqichi “Eng iqtidorli hunarmand” nominatsiyasi g`olibi
6.	Sertifikat	Respublika Ma`naviyat targ`ibot markazi rahbari	2014 yil 21 iyun	Toshkent shahar	“Yuksak ma`naviyatli avlod” festivali Respublika bosqichi ishtirokchisi
7.	Diplom	“Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati Buxoro shahar kengashi raisi	2014 yil	Buxoro shahar	“Yurt kelajagi” Buxoro shahar bosqichi “Amaliy san`at” nominatsiyasi g`olibi
8.	Diplom	“Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati Buxoro viloyat kengashi raisi	2014 yil	Buxoro shahar	“Yurt kelajagi” Buxoro viloyat bosqichi “Amaliy san`at” nominatsiyasi g`olibi

9.	Sertifikat	“Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi raisi	2014 yil	Toshkent shahar	“Yurt kelajagi” Respublika bosqichi ishtirokchisi “Amaliy san`at” nominatsiyasi g`olibi
10	Diplom	Buxoro viloyati kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi Kengashi	2014 yil	Buxoro shahar	“Yilning eng faol yosh mutaxassisi” Buxoro viloyat bosqichida faol ishtiroki uchun
11	Diplom	O`zbekiston savdo-sanoat palatasi, “Kamolot”, O`zb.Resp. Davlat soliq qo`mitasi...	2014 yil	Buxoro shahar	Yosh tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar ko`rgazmasida faol ishtirok etganligi uchun
12	Diplom	O`zbekiston Respublikasi Buxoro viloyat hokimligi	2014 yil	Buxoro shahar	“Ipak va ziravorlar” festivalida faol ishtiroki uchun
13	Diplom	O`zbekiston “Adolat” SDP Buxoro viloyat Kengashi raisi, Buxoro davlat badiiy me`morlik muzey qo`riqxonasi Sitorai Mohi Hossa muzeyi filial boshlig`i	2014 yil	Buxoro shahar	“Oilaviy hunarmand zardo`zlar” ko`rgazmasida faol ishtiroki uchun
14	Sertifikat	Minister of culture of the Republic of Tajikistan, Director of International Fund for Handcraftsmanship of Tajikistan “Haft Paykar”	2014 yil 6-9 noyabr	Dushanbe Tojikiston	“Diyori Husn” festivali g`olibi
15	Diplom	Buxoro viloyati hokimi v.b., Viloyat Ma`naviyat va ma`rifat Kengashi raisi	2015 yil	Buxoro shahar	“Yuksak ma`naviyatli avlod” festivali viloyat bosqichi “Eng iqtidorli hunarmand” nominatsiyasida faol ishtirokchi
16	Diplom	O`zbekiston Respublikasi Buxoro viloyati Vobkent tuman hokimligi, “Hunarmand” uyushmasi	2015 yil	Vobkent tuman	O`zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun “Tashabbus-2015” ko`rik tanlovi shahar bosqichida “Eng yaxshi hunarmand” nominatsiyasi g`olibi
17	Diplom	O`zbekiston Respublikasi Buxoro viloyati hokimi	2015 yil	Buxoro shahar	O`zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun “Tashabbus-2015” ko`rik tanlovi viloyat bosqichida “Faol ishtirok etganligi uchun”
18	Diplom	O`zbekiston Respublikasi Buxoro viloyati hokimi	2015 yil	Buxoro shahar	“Ipak va ziravorlar” festivalida faol ishtiroki uchun
19	Diplom	“Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati Buxoro shahar kengashi raisi	2015 yil	Buxoro shahar	“Yurt kelajagi” Buxoro shahar bosqichi “Amaliy san`at” nominatsiyasi g`olibi
20	Diplom	“Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati Buxoro viloyat kengashi raisi	2015 yil	Buxoro shahar	“Yurt kelajagi” Buxoro viloyat bosqichi “Amaliy san`at” nominatsiyasi g`olibi
21	Diplom	“Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi raisi, O`zbekiston Respublikasi oliy va o`rta maxsus ta`lim vaziri	2015 yil	Toshkent shahar	“Yurt kelajagi” Respublika bosqichi ishtirokchisi “Amaliy san`at” nominatsiyasi g`olibi
22	Tashakkur-noma	Director of International Fund for Handcraftsmanship of Tajikistan “Haft Paykar”	2015 yil	Dushanbe Tojikiston	Mahorat darslarini olib borganligi uchun

23	Diplom	O`zbekiston Respublikasi Buxoro viloyati Vobkent tuman hokimligi	2016 yil	Vobkent tuman	O`zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun "Tashabbus-2016" ko`rik tanlovi "Faol ishtirok etganligi uchun"
24	Diplom	Urganch Davlat Universiteti rektori	2016 yil 18 aprel	Urganch (Hududiy bosqich)	"Ertangi kun bizniki, marra bizniki" shiori ostida ilmiy ma`ruzalar tanlovi g`olibi
25	Diplom	O`zbekiston Respublikasi oliy va o`rta maxsus ta`lim vaziri	2016 yil	Toshkent shahar	"Ertangi kun bizniki, marra bizniki" shiori ostida ilmiy ma`ruzalar tanlovi g`olibi
26	Sertifikat	Minister of culture of the Republic of Tajikistan, Director of International Fund for Handcraftsmanship of Tajikistan "Haft Paykar"	2016 yil 24-27 noyabr	Dushanbe Tojikiston	"Diyori Husn" festivali qatnashchisi
27	Sertifikat	Co-Director of UJC	2017 yil 10-12 aprel	Buxoro shahar	"Turizmnda Marketing" deb nomlangan kursni a`lo tugatganligi uchun
28	Diplom	O`zbekiston Respublikasi Buxoro viloyati hokimligi	2017 yil	Buxoro shahar	O`zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun "Tashabbus-2015" ko`rik tanlovi viloyat bosqichida "Eng yaxshi yosh tadbirkor"
29	Diplom	Buxoro viloyati hokimi v.b., Viloyat Ma`naviyat va ma`rifat Kengashi raisi	2017 yil	Buxoro shahar	"Yuksak ma`naviyatli avlod" festivali viloyat bosqichi "Eng iqtidorli hunarmand" nominatsiyasi g`olibi
30	Tashakkur-noma	O`zbekiston Respublikasi Buxoro viloyati hokimligi	2017 yil	Buxoro shahar	"Yuksak ma`naviyatli avlod" festivali viloyat bosqichi "Eng iqtidorli hunarmand" nominatsiyasi g`olibi

# I BOB. TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA HUNARMANDCHILIKNING O'RNINI

## 1.1. O'zbekistonda mavjud hunarmandchilikning turlari, tarixi va tavsilotlari

***Kulolchilik san'ati tarixi.*** VIII – XII asrlarda kulolchilik Markaziy Osiyoda yaxshi rivojlangan. Buni Afrosiyobda va Markaziy Osiyoning boshqa yerlarida topilgan kulolchilik buyumlari isbotlab berdi. O'sha davrda Markaziy Osiyo madaniyati tez su'ratlar bilan rivojlandi. Yangi ko'tarilish davri bo'ldi. Ko'pgina olim, yozuvchi va mutafakkirlar, ya'ni Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Firdavsiy, Rudakiylar yetishib chiqdi. Butun dunyoga mashhur bo'lgan me'morchilik yodgorliklari bunyod etildi. Buxoroda Ismoil Somoniy maqbarasi qurildi. XIII asrda mo'g'ullar bosqinchiligi oqibatida Buxoro, Samarqand, Urganch, Mavr, Balx yong'in ostida qoldi. Oqibatda kulolchilik san'ati rivojiga putur yetdi. XIV asrdan boshlab Markaziy Osiyo hududida kulolchilik tez su'ratlar bilan rivojlandi. Amir Temur xalq amaliy san'atini rivojlantirishda juda katta xizmat qildi. Bosib olingan joylardan ustalarni olib kelib ular uchun rastalar ochtirdi. Mashhur, go'zal, nafis binolar, qasrlar, saroylar qurdirdi. Amir Temur vafotidan so'ng o'zaro ichki janglar oqibatida Temuriylar xonligida markazlashgan xonlik kuchsizlanib ketdi. Natijada Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklari paydo bo'ldi. Markaziy Osiyoda bir necha feodal davlatning bunday ajralish natijasida o'zaro aloqalar susayib ketishiga sabab bo'ldi. Shuning uchun ham kulolchilik turli yerlarda turlicha rivojlandi. XIX asrga kelib kulolchilik mamlakatlari tashkil bo'la boshladi. Markaziy Osiyoda suvga bo'lgan ehtiyoj katta bo'lgani uchun sopol idishlarni tez su'ratlar bilan ishlab chiqarishga ehtiyoj sezildi. Asrlar osha ularning shakli va bezagi nafislashib bordi. Ustalar turli – tuman kulolchilik buyumlarini yasashdan tashqari ularni yuksak did bilan bezay boshladilar.

XIX asrda arzon baho chinni ishlab chiqarilishi va Rossiyadan chinni idishlarni ko'plab olib keltirilishi Markaziy Osiyo hududida sopol buyumlar ishlashni birmuncha pasaytirib yubordi. Lekin arzon sopol idishlarni me'morchilikda keng foydalanishi kulolchilikning rivojlanishiga to'sqinlik qila olmadi.

XIX asrda Markaziy Osiyoda Tojik va O`zbek xalqlari o`rtasida kulolchilik juda keng rivojlanib G`ijduvon, Panjikent, Samarqand, Shahrisabz, Toshkent, Rishton kulolchilik markazlari paydo bo`ldi. Ular sopol idishlarni sirlab bezatishning o`ziga xos uslublarini vujudga keltirdilar. Ayniqsa, ishlab chiqarilayotgan kulolchilik mahsulotlarining sifatligi, chiroyliligi, naqshlarining nafis va ta`sirchanligi bilan shuhrat qozondilar. 1930 – yilda Toshkentda eksperimental keramika va Samarqandda keramika ustaxonalari ochildi.

**Zargarlik san`ati tarixi.** O`zbek xalq amaliy san`ati turlari ichida zeb – ziynat san`ati bo`lmish zargarlik alohida o`rin egallaydi.

Musulmonlarda feruza, marvarid, zumrad boshqa toshli zargarlik buyumlari nihoyatda qadrlanadi. Chunki ular inson uchun bezak buyumlari bo`lib qolmay, balki sog`liq uchun, inson ruhiyati uchun ijobiy ta`sir etgan. Masalan, marvarid inson organizmini mustahkamlaydi, yurakdagi tushkunlik va iztirobni haydaydi, ko`rish qobiliyatini yaxshilaydi, jinlardan saqlaydi, og`izdagi qo`lansa hidlarni yo`qotadi, oshqozondagi va jigardagi toshlarni maydalaydi, shamollash va boshqalarni davolaydi. Feruza esa qudratli tumor sifatida taqilgan, oshqozon hamda ko`z kasalligiga shifobaxsh ta`sir etgan, ilon chaqqanida eng yaxshi davo hisoblangan. Shuning uchun qadimda kelinlar kiyimiga feruza taqishgan. Sadaf Sharqda ham, Yevropada ham yuqori baholangan. Undan to`g`nag`ich, baldoq, marjonlar, ilma tugmalar yasalgan. Uni taqqan kishi ajin hamda sepkillardan asragan, zehnni ravshan qilgan, kishini bardam, ruhiyatini ko`targan.

Xalsedondan o`tmishda marjonlar, uzuk, to`g`nag`ichlar, bilak-uzuk, va boshqalar yasalib, u go`yo odamlarni qahru – g`azab, g`am – anduhdan asragan.

O`zbek zargarligi juda qadimiy tarixga ega. Unga ibtidoiy jamoa tuzumi davrida asos solingan. Arxeologik topilmalardan ma`lumki, zargarlik san`ati juda qadimiy san`at bo`lgan. Eramizgacha bo`lgan 1 – asrdan boshlab, eramizning VIII asrigacha Ayritom, Afrosiyob, Dalvarzintepa, Xolgayon, Bolalik tepada chiroyli haykallar, devor bezaklari orqali zargarlik san`ati rivojlanganligini ko`rishimiz mumkin.

Tosh asrining so`nggi davri neolitdayoq (eramizgacha IV – III ming yillikning oxirida) shildiroq, munchoqlar, har xil toshlar, chig`noq hamda suyaklardan yasalgan

bezaklar topilgan. Bu esa zargarlining rivojlanganidan dalolat beradi. Ikki daryo oralig`ida joylashgan Yunonistonda ajoyib va qimmatbaho zargarlik buyumlar ishlangan. Mis davrida to`g`nag`ich, zirak, baldoq, bilakuzuk, shildiroq va boshqalar metaldan, hattoki oltindan ishlanadigan bo`ldi.

Xorazmdagi Tuproqqa`a devorlaridagi tasvirlardan o`sha davrdagi ayollar quloqlariga nafis zirak taqqanliklari ma`lum bo`lgan (bu tasvir III asrga taalluqli). Bulardan tashqari bronzadan quyib ishlangan bir qancha osma taqinchoqlar ham topilgan. Bu osma taqinchoqlar I – IV asrga mansub bo`lib Xorazmning Ayozaqqa`a, Yetti asar, burgut qa`a va boshqa joylaridan topilgan.

X – XI asrlar o`rtasida bitta katta teshigi bo`lgan suyakli tugmachalar ko`p ishlangan.

XIV – XV asrlarda zargarlik juda yaxshi rivojlangan bo`lsada nimagadir bizgacha juda kam miqdorda saqlanib qolgan. Ba`zi bir yozma manbalarda yozib qoldirilishicha XIV asr oxiri XV asr boshlarida Tojiddin zargar Buxoro yaqinidagi Tavans shahrida yashagani, bulardan tashqari Husaynning o`g`li Muhammad zargar, XV asrning ikkinchi yarmida yashagan usta Ali zargar, xo`ja Sulton Husayn zargar, xo`ja Bobo Do`stning o`g`li xo`ja Hasan zargar nomlari bizga ma`lum.

XVI asrda ishlangan ko`krak bezak zargarlik buyumlari faqat devoriy rasmlar orqali yetib kelgan. XIV – XVII asrlarda zargarlik buyumlarining naqsh bezaklari judayam murakkablashib boradi.

XIII – XIV asrgacha zargarlik buyumlarida ko`pincha hayvonlar tasvirlangan bo`lsa, keyinchalik esa arab yozuvlari kompozitsiyaga kirib o`ziga xos ko`rinish berdi. Bu yozuvlar bir tomondan naqsh bezagi va ikkinchi tomondan ma`no jihatidan farqlanar edi. XVIII asrda Markaziy Osiyodagi o`zaro ichki urushlar zargarlik san`atining rivojlanishiga salbiy ta`sir etdi. Keyinchalik xonliklar paydo bo`lishi bilan zargarlik yanada rivojlana boshladi. XVIII asrda mo`g`ul bosqinchilaridan so`ng birinchi marta oltin va nefrit kabilarni ishlatdilar.

XIX asr va XX asr boshlarida Markaziy Osiyo xonliklari o`rtasida badiiy hunarmandchilik rivojlandi, shular qatori zargarlik ham tez suratlar bilan rivojlandi. Ko`pgina shaharlarda masalan, Xiva, Buxoro, Qo`qon, Samarqand, Qarshi,

Shahrisabz, Toshkent, Andijon, Urgench, Nurota, Kitob, Chust, Asaka, G`ijduvon, Marg`ilon va boshqa joylarda usta zargarlar bo`lib, ular maxsus mahalla – mahalla bo`lib yashaganlar. Shuning uchun zargar (zargaron) mahalla deb yuritilgan Xivada 1860 – yilda 12 ta XX asrning boshlarida Buxoroda 400 tagacha hunarmandlar mahallalari bo`lgan.

**Zardo`zlik san`ati tarixi.** Zardo`zlik – hunarmandchilikning qadimiy turlaridan biri bo`lib, zar ip bilan naqsh ( kashta ) tikish kasbi. U forscha zar (tilla), do`zi (tikmoq) so`zini anglatadi.

Zardo`zlik san`ati uzoq tarixga ega. Zardo`zlikning vatani **Vavilon** bo`lib, u Rim imperiyasiga qarashli bo`lgach, zar, ipak va jun ip qo`shib tikilgan rang – barang kashtachiligi bilan butun dunyoga mashhur bo`lgan. Vizantiyada zardo`zi kiyim – kechaklarni faqat imperator ayollari, aslzodalar kiyishgan. Vizantiya bilan muntazam madaniy hamda siyosiy hamkorlik qilishi tufayli zardo`zlik san`ati Eron podsholigi saroyida ham rivoj topgan. Eronda zardo`zlik san`atining rivojlanganligiga XV – XVII asrda ishlangan zardo`zlik namunalari misol bo`la oladi. Vizantiyadan Qadimgi Rusga ham zardo`zlik san`ati kirib kelgan. Kichik Osiyo doirasida zardo`zlik XIII va XV asrlarda ham rivojlangan. Xullas Vizantiya qayerga ta`sirini o`tkazgan bo`lsa o`sha yerda zardo`zlik rivojlangan.

Abdurazzoq Samarqandiy “Hindiston safarnomasi” asarida 1442 yili Shohruh zamonida Shimoliy Hindiston bilan Hirot o`rtasida turgan elchilarning sovg`alari orasida zarbof kiyimlar bo`lganligini aytib o`tgan. 1465 – yili “Ashratxona” maqbarasi haqidagi hujjatlarda zarbof kiyimlar haqida bayon etib o`tgan. Hirotga yashab ijod etgan Vasfiy o`zining risolalarida zarbof kiyimlar va zardo`zlik kasbi to`g`risida bayon etgan.

XVII asrda yashagan Samarqandlik shoir Fitratning asosiy kasbi zardo`zlik bo`lgan, u matolarga zardan ajoyib kashtalar tikkan. XIX – XX asr boshlarida zardo`zlikning o`ziga xos maktabi yaratildi. O`zbekistonda Buxoro, Samarqand, Farg`ona va boshqa joylarda zardo`zlik maktablari ochilgan. Qimmatbaho matodan tayyorlanadigan zardo`zi kiyimlar mahalliy aholining turli tabaqalari o`rtasida keng tarqalgan. Bu kiyim – kechaklar asosan amir saroyidagilar, shahar boylari uchun

tikilgan. Yuzlab qo`li gul ustalar hammasi amir saroyining ehtiyoji uchun ishlagan. Bu ustalarning ko`pchiligi ota – bobosidan meros bo`lgan saroy ulamolari uchun kamzul, chakmon, chalvor, poyafzal, belbog`, salla, quloq va jul tikishgan. Bu kiyimlar xon buyurtmasi yoki yaqinlari tomonidan bironta oilaviy tantana va bayram munosabati bilan tayyorlash buyuriladi. Hech kim, hatto eng katta amaldorlardan birortasi ham yuqorida aytib o`tilgan kiyimlardan hech birini o`ziga buyurishga haqqi yo`q edi, ular zarbof kiyimlarni amir sovg`a qilgandagina kiyishlari mumkin edi. Ayollar va bolalarning zardo`zi kiyimlari faqat badavlat xonadonlarning an`analaridagina kiyilgan, kiyimlarni ular bironta oilaviy tantana yoki bayram munosabati bilan kiyishgan. Boy xonadonlarning 8 – 10 yoshdan katta bo`lmagan o`g`il bolalariga sunnat to`yi munosabati bilan zarbof to`n kiydirilgan.

XIX – XX asr boshlarida Buxoroda hukmronlik qilgan mang`itlarning oxirgi sulolasiga taalluqli zarbof kiyimlar yagona yodgorliklari nusxasi hisoblanadi. 1800 – 1823 yillarda Haydarxon podshoh zamonasida ishlangan zardo`zi maxsi (1810 – yilda ishlangan) saqlanib qolgan. 1827 – 1840 yillarda Amir Nasrulloning juda ko`p zarbof kiyimlari saqlanib qolgan. 1893 – yildan 1911 – yilgacha hukmronlik qilgan Abdullaxonga mansub juda ko`p zardo`zlik kiyimlari juda ko`p saqlanib, o`sha davr zardo`zlik san`ati gullab yashnagan davr hisoblanadi. Markaziy Osiyo zardo`zlar boshqa hunarmandchilik kabi maxsus tashkilotga uyushgan edi. O`sha vaqtda Buxoroda 350 ga yaqin ustalar bo`lgan. Ular ustidan nazorat qilib beradigan maxsus tashkilot bo`lgan. Buxoro amirining shahardan tashqaridagi Sitorai Moxi – Xosa hamda Sherbudun saroylarida har yili bozor sayli bo`lib, unga xalq amaliy san`ati turlaridan kulolchilikning, misgarchilik, kandakorçilik, do`ppido`zlik va boshqalar qatori zardo`zlik buyumlari tashkil etilar edi. Sherbudunda 4 – 6 hafta Sitorai Moxi – Xosada 2 – haftacha davom etgan. Bu sayil har yili xalqning an`anaviy bayrami hisoblanib hukumat tomonidan qonunlashtirilgan edi. Narsalarni sotishga qulay bo`lishi uchu vaqtinchalik rastalar qurilar, bularning hammasini uyushtirishga ustalarning oqsoqoli rahbarlik qilar edi. Bunday sayillarning bo`lib turishi xalq amaliy san`atining rivojlanishiga katta hissa qo`shgan. Feodalizm davrida hamma hunarlar kabi zardo`zlik muqaddas hisoblangan. Chunki har bir hunarga, kasbga

boʻlgan hurmat shunchalik boʻlganki ustalar har bir qilgan ishlarini dil vijdoni bilan bajargan. Ustalarning aytishicha eng birinchi usta zardoʻz, eng birinchi ustoz gʻoyibona homiy pir Hazrati Yusuf boʻlgan deyishadi. Buxoroda zardoʻzlik saroy ustaxonalari boʻlib ular arkda, podshohlik binolarida, davlat amaldorlarining hovlilarida joylashgan boʻlib amir xazinasi tomonidan taʼminlanib turilgan. 1860 - 1885 – yilda saroyda bitta, 1885 – 1911 – yillarda ikkita ustaxona boʻlgan. Birinchi ustaxona davlatning bosh vaziri – qushbегining podshohlik uyida, ikkinchisi amirning moliya hamda soliq ishlarini yurituvchi zakotchining uyida edi. Qozi kalon Badriddinning uyida ham zardoʻzlik ustaxonasi bor edi. Unga podshoh tuxsat berib, saroy ustaxonalari darajasida huquqqa ega edi. Qozi Badriddinning uy ustaxonasida amirning maxsus ruxsatnomasi bilan har xil sovgʻa – salom tayyorlanar edi.

1894 – yili amir Abdulahadning Karmanaga butunlay koʻchirilishi, saroy ustaxonasi faoliyatini toʻxtatdi. Saroy buyurtmalarini avval xususiy ustalar tayyorlab berar edilar. Keyinchalik esa Chorbogʻigul saroyi qoshidagi ustaxonada bajarildi. 1915 – yili Olimxon davrida Buxoroda Qoʻshbegi Mirzo Urganjiyning uyida podshohlik ustaxonasi tashkil etilgan. Bu ustoxona Qushbegi ixtiyorida boʻlgan. Unda koʻp kamligidan qatʼiy nazar 20 tadan 40 tagacha ustalar ishlagan. Ustaxonaga ustakor boshchilik qilgan. Ustakor tajribali, malakali, tarxkashlardan “yaʼni naqsh chizuvchi usta” qushbegi tomonidan saylangan. Bulardan biri gul tikish sanʼatida qoravulbegi, Salim ustakorlik lavozimida ishlagan. Keyinchalik Shoiddin va Abdushukur tarxkash boʻlgan. Ular zardoʻzlarga ish bergan, buyurtmalarni oʻz vaqtida bajarilish hamda ishni sifatli chiqishini nazorat qilgan. Ustakor barqut, shoyi ip va boshqa xom ashyolarni tarqatib turgan. Faqat ustakor kalobatunni, yaʼni qimmatbaho zar ipni qushbegi idorasi ichida tayinlagan maxsus mirzo kalobatunchidan olgan. Ularni maxsus taxtachalarga oʻyib yozilgan “xat poʻbi non” va “xatchoʻbi goʻsht” ga boʻlar edi. Maosh dam olish kuni – payshanbadan qushbegi idorasidan mirzo tuzgan hisob – kitob boʻyicha berilgan. Shogirdlarga ustala pulning uchdan bir qismini berardilar. Ustaxonadagi oziq–ovqat bir maosh hisoblangan. Shogirdlar oziq–ovqatni yo uylariga olib ketar edilar yoki kambagʻallarga sotib yuborar edilar. Tushgan pulni boʻlishib olganlar. Ustalar baʼzi vaqtlarda kechasi ham

qolib ishlaganlar. Ularga bir tangadan “kori shab” uchun qo`shimcha haq to`langan. Tezkolik bilan qilinadigan ishlarni ayrim hollarda buyurtmani shartnoma asosida ustalar uylariga oli borib bajarganlar. Agarda saroy ustaxonasida shoshilinch ish bo`lsa, yoki zardo`zlar sonini ko`paytirish maqsadida qushbegi mahallasidan oqsoqol nomiga arkda ishlash uchun eng yaxshi ustalardan bir nechtasi talab qilingan, usta va sohibkorlar arkdagi ishga safarbar qilingan.

Podshohning zardo`zlik ustaxonasidan tashqari yana xususiy ustaxonalari bo`lib, ularning soni 25 tacha bo`lgan. 1885 – 1911 yillar Buxoroda zardo`zlik san`ati gullab yashnagan davr bo`lgan.

***Misgarlik san`ati tarixi.*** O`zbekiston kashtachilik, misgarlik, ganchkorlik, yog`och o`ymakorligi xalq amaliy san`ati bilan butun dunyoga mashhur. Yog`ochga, misga, qog`ozga, matoga, ganchga chizib tirnab zarb berib ishlangan naqsh nigoralar, ularning go`zalligi, nafisligi va ta`sirchanligi kishini o`ziga maftun etadi.

Shu san`at turlaridan biri misgarlik bo`lib, u qadim zamonlardan buyon davom etib kelayotgan san`atdir. Misgarlik deganda – misdan qurollar, uy ro`zg`or buyumlari va boshqa jihozlar yasash kasbini tushinamiz. Misgarlik hunarmandchilikning qadimiy va keng tarqalgan turidir. Misgarlikda ishlatiladigan asosiy material mis. Mis nima? Mis nima uchun ishlatiladi degan savol tug`iladi.

Mis qadimdan insonga ma`lum bo`lgan metal. Mis va uning qotishmalari insonning moddiy madaniyatini o`stirishda katta ahamiyaga ega. Qadimda yunonlar mis rudasini birinchi bo`lib Kipr orollaridan qazib olganliklari uchun uning nomi lotincha “Kuprum” deb ataladi. U tabiatda temir, kumush hattoki oltin bo`lgan ruda holida uchraydi.

Mis hayotiy fiziologik jarayonda qatnashadigan muhim element. U yumshoq, cho`ziluvchan, bolg`alanuvchan qizil yoki qizg`ish metal. Mis issiqlik va elektr tokini juda yaxshi o`tkazib, kumushdan keying ikkinchi o`rinda turadi. U havoda tez oksidlanib qorayadi. Nam havoda mis gidroksikarbonat hosil qilgani uchun ko`karadi. Mis mis rudalarini qayta ishlashdan olinadi. Undan lagan, oftoba, jom, samovar va boshqalar shuningdek suniy ipak olinadi. Qadimda misgarlar sof misni

sovuqlayin ishlatganlar, shuning uchun ham mis buyumlar yumshoq hamda mo'rt bo'lgan. Keyinchalik mis va kaliy qotishmasidan hosil qilingan bronzani ishlatganlar.

Bronzadan ishlangan buyumlar bir muncha pishiq bo'ladi. Kurama tog'larning janubi – g'arbiy qismidan, Qizil qum hamda Nurota tog'laridan topilgan topilmalar misning Markaziy Osiyo teritoriyasida qadimdan rivojlanganligi isbotladi. Buxoro qadimdan naqshinkor mis idishlar ishlash markazi bo'lib kelgan. Strabon hamda Geradot asarlarida Markaziy Osiyoda misgarlik mashg'ulotidagi ma'lumotlar yozilgan. X asr Arab geografi hamda sayohati Maqsidiyning yozib qoldirgan manbalari asosida shular ma'lum bo'ldiki, Arab mamlakatlarida Samarqanddan o'sha davrda katta mis qozonlar juda chiroyli mis qadaqlari, Buxorodan esa mis chiroqlari keltirilgan.

XI – XII asrda Termiz misgarlari butun dunyoga mashhur bo'lgan. XII – XIII asrlarda Markaziy Osiyoda mis buyumlari yasashga juda katta e'tibor berilgan.

XVIII – XIX asrlarda Buxoro, Samarqand hamda Qo'qon va Xiva kabi shaharlarda a'lo darajali bronza va misda idishlar yasash keng tarqalgan edi. Misgarlik san'atining o'ziga xos maktablari bo'lib, ular Qo'qon, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqa shaharlarda bo'lgan. Mis idishlar ikki yo'l bilan, birinchisi misni eritib quyib, ikkinchisi bolg'alab yasalgan. Bolg'alab yasashda sandondan foydalanilgan. Buyumni yasashda sandondan tez-tez qizdirib turilgan. Agar murakkab idishlar yasaladigan bo'lsa mis bir qancha bo'laklari qo'yilib keyin qalaylangan. Qolipdan chiqarilgan mis idish yaxshilab tozalanadi, idish bitgandan so'ng naqsh uyuvchi kandakorlarga beriladi.

***Ganchkorlik san'ati tarixi.*** Ganchkorlik qadimiy san'at turlaridan biri bo'lib, o'z aksi husn – jamolini bu dunyo memorchiligida, shu jumladan, Markaziy Osiyo, Eron, Turkiya, Arabiston, Afg'oniston va boshqa Sharq mamlakatlari me'morchiligida namoyon etib kelmoqda. Ayniqsa, “Markaziy Osiyoda yaratilgan asarlar o'ziga xos badiiyligi kompozitsiyasi va ishlanish uslubi bilan farq qiladi”. Hozirgi kunda ganch serquyosh O'zbekistonimizda ardoqlanib, avaylab muhofaza qilinayotgan ko'pgina yodgorlik obidalarga ko'rkamlik, go'zallik baxsh etib turibdi.

U Samarqand, Buxoro, Toshkent, Qo`qon, Marg`ilon, Xiva Shahrisabz va boshqa shahrlardagi tarixiy obidalarni qurish va bezatishda ishlatilgan.

Ganch qorishmasi yangiligida oson kesiladi, undan xoxlagancha shakllarni uyish, yasash mumkin, lekin u qotgandan so`ng qattiq toshga o`xshab qoladi. Ustalarimiz uning bu ajoyib xususiyatidan qadimdan foydalanib kelganlar. Shu tariqa hozirgacha bu hunar avloddan avlodga o`tib tarixiy an`ana sifatida rivojlanib boryapti. Ganchkorlik san`atimiz faxri beqiyos va bebaho xazina. Hech shubhasizki uni chuqur o`rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir.

Varaxshadagi topilmalardan VII – VIII asrlardagi Buxoro saroyi qoldiqlaridan namunalar topilgan. Bu topilmalarda qushlar, hayvonlar, baliqlarni, o`simliksimon va geometrik shakllarning o`yma namunalarini ko`rish mumkin. Markaziy Osiyoni arablar bosib olgandan keyin Islom dini hukumron bo`lib qoldi, u tirik mavjudotni tasvirlashni taqiqladi. Buni Markaziy Osiyodagi arxitektura yodgorliklaridan ko`rish mumkin. Xususan VII – VIII asrlardagi hukumdorlarning Varaxshadagi saroylarida bu san`atning xilma – xil namunalari saqlangan.

Buxorodagi Ismoil Somoniylar maqbarasida ganch o`ymakorligi namunalarida to`lqinsimon ishlangan naqshlar topilgan. Unda o`simliksimon naqshning islami turi ko`p ishlatilgan.

Ganchkorlik gullab yashnagan davr XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlari bo`ldi. Uning uslublari texnikasi ancha murakkablashdi. Ganch o`ymakorligining barcha turlari rivojlandi. Qurilgan binolarda xalq ustalari yorqin jilvali bo`yoqlar bilan ganchga jilo berdilar. Bezaklarning hamma turlariga xos aniq kompozitsion qonunlar ishlab chiqarildi. Toshkent, Samarqand, Buxoro va Farg`ona vodiysi va Xivada o`ziga xos mustaqil maktablar vujudga keldi. Ganch o`ymakorlik texnikasi kishilarni qoyil qoldiradigan darajada o`sdi. Buxoro bezaklari mayin gullari juda ham nafis, Marg`ilonning guldor bezaklari yaxlit ko`rinishga ega. Toshkentniki esa qat`iy va aniq ritm asosida tuzilgan, Xivaning dinamik o`yma naqshlari o`ziga xos spiralsimonligi bilan farqlanadi.

XX asrning boshlarida buyuk ganch o`ymakorlaridan Abdurahmin Hayitov, Usta Murod, Usta Fuzayil, Usta Nosir, Usta Hayot Nosirov, Usta Hoji Hofiz, Usta

Nasrullaboy, Usta Abdujalil, Usta Azim, Usta Omonullo, Usta G`ofur va boshqalar. 1913 – 1914 yillarda Buxoroda amir Ahadxon tomonidan Setorai Moxi Xosa qurildi. U ganch o`ymakorligi bilan bezatildi. Ayniqsa oq uy mehmonxona o`sh davrdagi ganch o`ymakorligining ajoyib namunasi desa bo`ladi. Bunda oyna zaminda ganch o`ymakorligi bajarilgan. U o`zining nozikligi va jimjimadorligi bilan ajralib turadi. Mazkur saroyning ishlarini Usta Shirin bajargan. U o`sha davrda eng ko`zga ko`rinagan ganchkor ustalardan edi.

*Yog`och o`ymakorligi san`ati tarixi.* Yog`och o`ymakorligi o`zbek xalq amaliy bezak san`atining keng tarqalgan bir turi. Bunda biror naqsh yoki tasvir taxta yoki yog`och buyumlarga chizib kesib, o`yib ishlanadi. Badiiy san`atning bu turi deyarli barcha xalqlarda bo`lib qadimgi antik dunyo mamlakatlari arxitekturasida keng ishlatilgan. Asrlar davomida Yevropa va Osiyo mamlakatlarida yog`och o`ymakorligining rivojlanib o`ziga xos badiiy uslublari kelib chiqqan. Shu singari Markaziy Osiyoda ham yog`och o`ymakorligi qadimdan rivojlanib kishilarning uy ro`zg`or buyumlarida va arxitekturasida keng qo`llanilgan. Bu o`ymakorlik qadimiy arxitekturaning eshik, darvoza, ustunlar, har xil to`siq, stol, xon taxta, quticha, ramka, qalamdon va boshqa buyumlarni bezashda ishlatilib kelingan. Arxeolog olimlarimizning izlanishlaridan Markaziy Osiyoda Gorelefli, ya`ni juda bo`rtiq (1-20mmgacha) releflar bilan har xil narsalarni yog`ochdan o`yib ishlanganligi ma`lum bo`ldi. Xalq yaratgan asarlar o`zining nafosati murakkabligi tabiiyligi bilan kishi aqlini lol qoldiradi. Afsuski yog`ochdan ishlangan ajoyib yog`och o`ymakorligiga har qancha sifatli ishlov berilishiga qaramay asrlar o`tishi bilan ular namga dosh bera olmay deyarli ko`pchiligi chirib yo`q bo`lib ketgan. Bularni arxeologik qazilmalarda topilgan va topilayotgan namunalar isbotlab bermoqda.

V – VI asrlarda yog`och o`ymakorligi Surxandaryo voxasida Yumaloq tepa tubidan topilgan. Olimlarimizning aniqlashicha bundan 1 – 1,5 ming yil avval mazkur joyda naqsh o`ymakorligi san`ati bo`lib, u juda yaxshi rivojlanganligi isbotlangan. Bunday noyob topilmalar Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz va boshqa shaharlardagi arxeologik qazilmalardan topilmoqda.

VII asrning oxirigacha mahalliy o`zbek xalqi ichida yog`och o`ymakorligi juda tez suratlar bilan rivojlangan edi.

XIII asrda Chingizxon bosqinchiligi tufayli madaniy hayot izdan chiqdi.

U 1219 – 1221 yillarda Mug`ul hukmdorligi ostida Markaziy Osiyodagi Buxoro, Samarqand, Urganch, Balx, Mavr shaharlari ostun – ustun qilib tashlandi.

XIV asrning 2 – yarmida Markaziy Osiyo Temur boshchiligida birlashtirildi. Temur va Temuriylar davrida san`atning barcha turlari qatori xalq amaliy san`ati juda tez sur`atlar bilan rivojlandi. Ayniqsa, yog`och o`ymakorligi ham yuqori cho`qqiga ko`tarildi. Amir Temur Markaziy Osiyo madaniyati va san`atini rivojlantirishda katta hissa qo`shdi.

Amir Temur o`z poytaxtining qurilish va obodonligi uchun harakat qilish bilan bir qatorda Xuroson, Eron, Mavorounnaxr singari o`lkalardan eng mashhur hunarmandlarini, san`atkorlarini poytaxtga to`pladi, nafis tasviriy san`atning naqqoshlik, memorchilik, arxitektura, xattotlik kabi san`at turlarini rivojlantirishda ulardan unumli foydalandi.

XIV – XV asrlarda yog`och o`ymakorligi tez ko`lamda rivojlandi. Hattoki tirik mavjudodlar uyib tasvirlangan ishlarni ham ko`rish mumkin edi. Samarqanddagi Rukobod maqbarasining eshigida o`yma naqsh bezatilgan bo`lib, baliqning stillashtirilgan rasmini ko`rish mumkin.

Temuriylar imperiyasi inqirozga uchradi. XVI – XVIII asrlardagi o`zaro ichki urushlar madaniyatimiz shu qatori xalq amaliy san`atining rivojlanishiga tasir etdi.

XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlarida Buxoro, Xiva, Qo`qon xonliklarida yetuk adabiy namoyondalari qatori xalq amaliy san`ati ustalari ham yetishib chiqdi. Bu xonadonlarda kulolchilik, misgarchilik, ganchkorlik, sirkorlik qatori yog`och uymakorligi ham gurkirab rivojlandi.

***Pichoqchilik san`ati tarixi.*** Pichoqchilik san`ati deganda biz pichoq yasash kasbini tushunamiz. Pichoq bobolarimiz uchun qadimdan tirikchilik vositasi bo`lib xizmat qilgan. Hozirgi kunda pichoq yasash san`ati xalq amaliy san`ati qatorida ezozlanib kelinayapti. Nodir pichoqlar yasashda o`zbek pichoqsoz ustalarining oldiga tushadigan usta kam topiladi. Pichoq yasash boshlang`ich poleolit davridayoq

ma`lum bo`lgan. Temir davrida hunarmandchilik paydo bo`lgan va rivojlangan. Mis va bronzadan pichoq yasash bronza kelib abj olgan. Markaziy Osiyo pichoqchilikning eng rivojlangan joyi arab mamlakatlari bo`lgan. Ispaniya va Italiyada esa tez rivojlanib o`tib ketgan.

Bolalik tepa, Afrosiyob, Varaxsha devorlariga ishlangan rasmlardan ma`lum bo`ldiki, pichoq uy ro`zg`ordan tashqari harbiy qurol sifatida ishlatilgan. VI – XII asrlarda pichoq yasash rivojlanib uni bezash texnologiyalari o`zgargan. XV – XVII asrlarda yonga osib yuriladigan pichoqlarning turli xillari paydo bo`ldi. Buni Navoiy, Bobur asarlarida ishlangan miniaturalaridan ko`rish mumkin.

Keyinchalik pichoqchilikning o`ziga xos maktablari paydo bo`ldi. Farg`ona vodiysi, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo qadimdan pichoqchilik markazlari bo`lib ular o`zining ishlash texnologiyasi, shakli, katta – kichikligi va bezaklari bilan farq qilgan.

Markaziy Osiyoda qadimdan metalni qayta ishlash ya`ni hunarmandchilik qurollari ishlab chiqarish uchun sharoit deyarli mavjud edi. Misning tabiiy zapaslari kumush, qo`rg`oshin, alyuminiy juda ko`p edi.

Hunarmandlar qadimdan bir biri bilan birikib bir mahallada yashaganlar. Shuning uchun mahallalarning nomi ko`pchilik qaysi hunar bilan shug`ullansa shu nom bilan yurgizilgan. Masalan, zargarlik bilan shug`ullansa zargarlar (zargaron), misgarlik bilan shug`ullansa misgarlar (misgaron) va hokazo mahallalar deb yuritilgan. Buxoroda “So`fikordgar” qishlog`ining nomi ham saqlanib qolgan. Uy yerda hozirda ham pichoqsozlar avlodi yashaydi. Markaziy Osiyo hududida bunday mahallalar juda ko`p bo`lgan. Pichoqdan kesuvchi asbob tariqasida kunda foydalanilsa, qadimda Markaziy Osiyo erkaklarining eng zarur ish qurol bezagi tariqasida foydalanilgan. Pichoqlarni badiiy bezash ham muhim rol o`ynagan. Shuning uchun ham Sharq madaniyatining eng yaxshi an`analarini qayta tiklash va o`zlashtirish natijasida O`zbekiston jumhuriyatidagi pichoqsozlar milliy pichoqni san`at darajasiga ko`targanlar. Mashhur Venger sayyohi A.Vamberi o`zining ajoyib “Markaziy Osiyo bo`ylab sayohat” asarida Qashqadaryoning pichoqchiligi haqida bunday deydi: “... bir xillari sifat jihatidan hisorlilarnikidan ustun bo`lmasa ham,

ammo, butunlay Markaziy Osiyoga tarqalgan bo`lib, xo`jalar tomonidan hatto Eron, Arabiston, Hindistonga olib borilar va o`z mahalliy joyidan ko`ra, chet ellarda pichoqlar 3 – 4 barobar qimmat sotilar edi”

***Kashtachilik san`ati tarixi.*** O`zbek milliy kashtachiligi amaliy san`atining eng qadimiy turlaridan bo`lib, u xalqning o`z turmushini go`zal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan. Kashtachilik san`ati nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham shuhrat qozongan. O`zbek xalq ustalari qo`llari bilan tikilgan kirpech, so`zana, zardevor, gulko`rpa, choyshab kabilar Germaniya Federativ Respublikasi, Belgiya, Amerika Qo`shma Shtatlari, Hindiston, Afg`oniston kabi xorijiy, shuningdek, mamlakatimizning Farg`ona vodiysida faqat xonadonlarda emas, balki muzeylarda doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolgan. Hozirgacha buyumlar o`ziga xos go`zallik, nafis bezaklarning rang - barangligi bilan kishilarni hayratga solib kelmoqda. Badiiy kashtachilik uzoq tarixga ega, buni arxeologik topilmalar va yozma manbaalar isbotlab bermoqda. O`zbek kashtachiligi iqlim, tabiiy sharoit, muhit bilan bog`liq holda barcha kasb – hunarlari bilan birgalikda rivoj topgan. Kashtachilik san`atining eng qadimiysi saqlanmagan. XIV – XV asrlarga mansub miniaturalar orqali kashtachilikning juda qadimdan rivojlanganligini ko`rish mumkin. Ispan elchisi ***Rui Gonzales de Klavixo*** Amir Temur saroyida o`zbek milliy kashta bezaklarini ko`rganini kundaligida yozib qoldirgan. 1467 – yili Kamoliddin Behzod “ Zafarnoma ” ga ishlagan “ Temur taxtda ” miniaturasida chodirga ishlangan kashtani ham aks etirgan. XIX asrning ikkinchi yarmida kashta tikish mashinasining ixtiro etilishi kashtachilik korxonalarini vujudga kelishiga asos soldi. Mashinada kashtalarning ko`p ishlab chiqarilishi ularning badiiyligiga putur yetkazdi. Qo`l kashtalari unutila boshlandi. Lekin ayrim xillarigina saqlanib qoldi. O`zbek kashtachiligi qo`shni xalqlar kashtachiligi ta`sirida boyidi va rivojlandi. O`zbek kashtalariga nazar solsak, Hind, Xitoy, Rus, Afg`on, Qozoq, Qirg`iz va Tojik kashtachiliklarining usul va uslublarini uchratamiz.

Ulug` Oktabr inqilobidan son`g qardosh xalqlar madaniyatining ta`siri kuchli bo`ldi. Bu san`atda har bir millatning o`ziga xos eng ko`p qo`llaydigan naqshlari bo`ldi. Chunonchi o`zbek kashtalarining o`simliksimon shakllari, gullar, qush va

mevalar ko`p tasvirlanadi. Qozoq va Qirg`iz kashtachiligida esa ko`proq hayvonlar, shox va turoqlari eslatuvchi elementlar tasvirlanadi.

Qadimiy an`analarga ko`ra, o`zbek qizlari – bo`lajak kelinchaklar seplari – har xil kashtachilik buyumlarini o`zlari tayyorlashlari lozim edi. Kashtalr qanchalik nozik, chiroyli bo`lsa, qayliq shunchalik yuqori baholanar edi. Qizlar 7 -9 yoshidan boshlab kashta tikishga o`rgatilardi. Ular uch, to`rt yildan keyin mustaqil kashta tika boshlaydilar. Yetishib chiqqan kashtachilar o`zining san`ati va tabiatiga ko`ra go`zallik haqidagi orzularini ifodalashga harakat qilganlar.

***Do`ppi do`zlik san`ati tarixi.*** **Do`ppi** – O`zbekistonda keng tarqalgan yengil bosh kiyimi. Do`ppi kiyish dastlab Eron va Turkiy xalqlar o`rtasida, Rossiyada esa XIII asrda rasm bo`lgan. Asrlar davomida do`ppining turli xillari vujudga kelgan. Baxmalga, sating, sidirga shoyiga ip, ipak va zar bilan do`ppi gullari tikilgan. O`zbekistonda Toshkentda, Samarqandda, Buxoro, Chust, Boysun, Shahrisabz do`ppilari mashhur bo`lib, ular o`ziga xosdir. Jumhuriyatimizning barcha rayonlarida do`ppi tikiladi. Uning Iroqi, Chust do`ppi, Gilam do`ppi, Chakma to`r, Qizil gul, Piltado`zi, Zardo`ppi, To`ldirma deb nomlanadigan turlari bor. Har bir do`ppi yaratilish usuliga ega bo`lib, ular bir – biridan farq qiladi. O`zbekistonda ommaviy bosh kiyimi asosan uch xil shaklga ega bo`ladi. “**Kuloh**”, “**Araqchin**”, “**Tusdo`ppi**”.

***Gilam to`qish san`ati tarixi.*** Gilam tikish san`ati xalq amaliy bezak san`atining keng tarqalgan turi bo`lib, ko`p asrlik milliy an`ana va uzoq tarixga ega. Gilam to`qish badiiy to`qish hunariga kiradi. U qadimdan ayollar orasida keng tarqalgan hunar sifatida mashhurdir. Gilam to`qish san`ati ayniqsa chorvachilik bilan shug`ullanadigan ko`chmanchi xalqlar orasida tarqalgan. Gilam qadim zamondan beri xona ichini bezatish, issiq saqlash tovushni kamaytirish uchun xizmat qiladi. Gilam asosan polga yoki bo`yra ustiga to`shaladi, xonani bezatish uchun devorga osiladi va o`tov ichiga o`raladi. Bu san`at juda qadim zamonlardan beri rivojlanganini yozma tarixiy manbalar va arxeologik topilmalar isbotlab berdi. Arxeologik topilmalar natijasida Xorazmda miloddan avvalgi 1 – ming yillikga mansub gilamlar topilganligi tasdiqlandi. Qadimda Ussuri, Bobil, Midiyada keyinroq esa Eron, Hindiston, Turkiyada to`qilgan rangli gilamlar mashhur bo`lgan.

VII asr qo`lyozmalari gilam to`qish san`ati o`sha davrlarda Markaziy Osiyoda ham rivojlanganligini tasdiqladi. V – VII asrlarda Markaziy Osiyodagi ko`pgina shaharlardan Xitoyga har xil gilamlar olib kelingan. Masalan, Qarshi Nashebodan to`qilgan gilamlar Xitoyga olib borib sotilgan. Markaziy Osiyo va Afg`oniston adabiyotlarida ko`rsatilishicha VII – XI asrlarda Xorazm hamda Samarqand bilan Buxoro o`rtasidagi ba`zi shaharlardan kichik – kichik joynamoz gilamchalar to`qilib chet mamlakatlarga sotilgan.

XI – XII asrlarda Markaziy Osiyoda shu jumladan O`zbekiston territoriyasida gilam to`qish san`ati juda rivojlangan. XIV asrda esa O`zbekiston territoriyasida gilam to`qish san`ati rivojlanmay qoldi, chunki mo`g`ul bosqinchilari Markaziy Osiyoni egallab olgan edi.

XIV asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoning Amir Temur qo`liga o`tishi bilan bu soha yana rivojlanib ketdi. Har xil horijiy mamlakatlardan olib kelingan ustalar gilam to`qish ustaxanalarida ishlaganlar.

XVIII –XI asr boshlarida ayniqsa, Buxoro va Farg`ona xonliklarida gilam to`qish san`ati tez suratlar bilan rivojlandi. Bunda gilam tayyorlash o`zining naqshi, yuqori sifatli to`qilishi, bo`yalish texnikasi bilan ajralib tugan.

XX asr boshlarida Buxoro, Qo`qon, Samarqand, Andijon, Markaziy Osiyoning gilam to`qib sotish markazi hisoblangan. Lekin XX asr boshlarida bu yerlarda gilam to`qish san`atining rivojlanishi pasayib ketdi. Ulug` Oktabr inqilobidan so`ng bu sohaga yanada e`tabor berildi. Gilam to`qiydigan mashinalar ixtiro etila boshlandi. Xiva, Andijon, Qarshi, Urgut shaharlarida gilam to`qiydigan korxonalar ochildi. Mashinada to`qiladigan gilamlar o`ziga xos tomonlari bilan farq qiladi. Ularda ko`pincha gilamlar suniy tolalardan to`qiladi. Gilamlarning arqoni ko`pincha zig`ir yoki paxta tolasidan tayyorlanadi. 1930 – yillarda murakkab patli gilamlar mashinada to`qiladigan bo`ldi. Pat bog`laydigan maxsus dastgohli korxonalarda gilamlar ishlab chiqarila boshlandi. Andijonda “Mehnat guli” arteli qoshida gilam to`qish kursi ochildi. Artelga Farg`ona vodiysidagi Oyim qishlog`i-dan katta usta Mehriniso Teshaboyeva taklif etildi. Mashhur usta qo`lida juda ko`p mutaxassislar yetishib

chiqdi. Jumhuriyatda gilamdo`zlik yanada rivojlantirish uchun Turkmanistondan mashhur ustalar taklif etildi va ichida ko`plab gilamdo`z ustalar tayyorlab berildi.

O`zbekistonda gilam to`qish maktabi asosan ikki – Samarqand va Andijon katta guruhlariga bo`linadi. Andijon gilamlari o`zining chidamliligi, pishiqligi, aniq qizil ko`k koloriti bilan farq qiladi. Farg`ona, Qoraqalpoq gilamlari asosan ikki xil, ya`ni qizil va to`q ko`k gammada to`qiladi. O`zbek gilamlari chetiga ko`pincha ruta o`rtasiga turunj yoki doira naqshi ishlanadi. Samarqand gilamdo`zlik maktabiga Samarqand va Buxoro viloyatlaridagi gilam to`quvchilar kiradi. Buxoro gilamalari o`zining rang – barangligi, kattaligi, uzun patliligi va chiroyli naqshlar bilan ajralib turadi. Samarqand gilamlari qisqa patli, markazida turunj chetiga alohida –alohida naqshlar ishlanadi. Qalqon deb nomlangan tuunj naqshi juda ko`p ishlatiladi. Gilamlar hoshiyador estetik jihatdan chiroyli ishlangan bo`ladi.

Nurota gilamlari esa o`zining uzun patliligi o`rtacha kattaligi, siyrakroq to`qilishi bilan ajralib turadi. Dastgohda qo`lda to`qilgan gilamlar o`zining chidamliligi, nafisligi, tabiiyligi va sifati jihatidan ajralib turadi. Bu gilamlar yuz yillar xizmat qilishi mumkin. Ko`pgina mamlakatlarda qadimdan qo`lda to`qib kelinayotgan gilamlar yaxshi rivojlangan. Masalan, Fransiya, Eron, Xitoy, Hindiston, Afg`oniston va boshqa mamlakatlarda. Sovet Ittifoqi eng yaxshi gilamlar, Dog`iston ASSR va boshqa viloyatlarda mukammal to`qilgan. Gilamdo`zlar yoshligidan shu kasbga yo`naltirilgan. Ko`pincha ota – bobolarining kasbi ularga meros sifatida avloddan avlodga ko`chib kelgan. 20 – 25 yoshda ular to`qishni yaxshi o`rganadilar. 30 – 35 yoshlarda esa tajribali, har xil gilamlarni mustaqil to`qiy oladigan bo`ladilar. O`zbekistonda ko`pincha yuk tashish uchun xurjun gilamlar ham to`qilgan.

## **1.2. O`zbekistonda hunarmandchilik san`atining rivojlanish holati**

Asrlar davomida sayqallanib borgan bu hunarmandchilik turlari hozirgi kungacha ko`pchiligi saqlanib qolgan. Yo`q bo`lib ketgan hunarmandchilik turlariga keladigan bo`lsak ular davr o`tishi bilan hokimiyat qo`ldan qo`lga o`tib, qanchadan qancha urushlar iskanjasida qolishi, zamonaning taraqqiyoti bilan olimlar tomonidan

ixtiro qilingan mashinalar, stanoklar yaratilishi ularning yo`q bo`lib ketishiga olib kelmoqda. Chunki vaqt o`tishi bilan insonlarning ehtiyojlari ko`payib borgan, 3 kishi bir haftada qiladigan ishini uskunalar ko`pi bilan bir kunda tayyorlashgan. Shu bilan qo`lda tayyorlashga ehtiyoj kamayib borgan. Uskunalar va inson qo`li bilan yaratilgan hunarmandchilik mahsulotlari o`rtasida qanday farq bor? Albatta inson o`z qo`li bilan yaratgan har bir mahsulotida inson mehnati, qalban shu ishga yondashgani seziladi.

O`zbekistondan olib ketilgan hunarmandchilik mahsulotlari mehmonlarga bizning tarixiy va milliy udumlarimiz haqida so`zlaydi va uzoq yodda qoladi, boshqalarini o`ziga chorlaydi. Hunarmandlar tomonidan yaratilgan hunarmandchilik mahsulotlari bilan har qancha faxrlansa arziydi.

Har bir sayyoh uyiga qaytar ekan borgan joyidan albatta estalik ya`ni suvenir olib ketadi, chunki uni har ko`rganida shu joy haqida eslaydi. Uning xotirasida o`sha joy bilan yaqindan tanishgani, ular haqida ma`lumotlar qayta jonlanadi albatta.

Suvenir – qo`l mehnatiga asoslangan yoki dastgohlarda yaratilgan san`ati asari bo`lib qolmay u shu o`lkaning tarixi, mashhur ustalari, udumlari, xalqning turmush tarzini o`zida aks ettiradi. Shunday insonlar borki, ular amaliy san`at mahsulotlarini yig`ish bo`yicha turlar tashkil etishadi, o`zlari uchun bu albatta ularning hobbisi hisoblanadi. O`zbekiston bo`ylab sayohat qilgan har bir sayyoh Buyuk ipak yo`li, O`zbekistonning turli viloyatlari, Buxoro, Samarqand, Xivada qurilgan tarixiy obidalarining go`zalligidan bahramand bo`lishi tayin. Dunyoviy meros bo`lib kelayotgan hunarmandchilik turlari esa uni yanada boyitadi. O`zbekistonni kulolchilik, zardo`zlik, zargarlik mahsulotlari, uning yig`uvchi kolleksionerlari uchun jannat deya atash mumkin. Buxoroning G`ijduvon tumanida kulollarning 6-avlodi bo`lmish Narzullayevlar dunyoga Buxoro kulolchiligini tanitib, o`z maktablarini ochdilar. Bir qancha ko`rik tanlovlarda sovrinli o`rinlarni qo`lga kiritishdi.

Buxoro viloyati Vobkent tumaniga qarashli O`ba qishlog`ida yashovchi Kubaro Boboyeva ko`p yillardan buyon hunarmandchilikning kulolchilik yo`nalishi bo`yicha ijod qilib kelayapdilar. K. Boboyevaning shogirdlari juda ko`p bo`lib, ular qatorida O`ba qishlog`idagi ko`pgina yoshlarni shu hunarga o`rgatib kelmoqdalar.

K. Boboyeva ijodlariga mansub boʻlgan afsonaviy hayvonlar shakllari chiroyli koʻrinishga ega boʻlish bilan bir qatorda ular hushtak ham chaladilar. Oʻbalik mashhur usta K. Boboyeva oʻz ijod namunalari bilan koʻplab chet el koʻrgazmalarida ishtirok etganlar va sovrinli oʻrinlarni egallaganlar.

Yana bir Buxorolik kulol – shoira, Oʻzbekiston Badiiy Akademiyasi aʼzosi Zamira Joʻrayeva qator yillardan buyon kulolchilik bilan shugʻullanib kelmoqdalar. Usta Z. Joʻrayeva ham oʻzining kulolchilik maktabini yaratgan boʻlib, u hozirgacha oʻzi yaratgan 500 xildan ortiq kulolchilik mahsulotlarini oʻsib kelayotgan yosh avlodga va farzandlariga oʻrgatib kelmoqda. Kulol oʻz asarlarida XVIII – XIX asr oʻzbek xalqining urf – odatlarini, yashash tarzini aks ettirgan. Bularga misol qilib, “Kashta tikayotgan ayol”, “Soch oʻrayotgan qiz”, “Buxoro bozori”, “Oʻzbek madonnasi”, “Dehqon bobo”, “Alla aytayotgan ayol”, “Tandirda non yopayotgan ayol”, “Savdogar yigit”, “Choʻpon va uyur” kabi qator sanʼat asarlari bilan oʻzbek xalqining hayotini talqin etishga harakat qilgan.

Zargarlik buyumlariga qiziquvchilar Buxoro, Samarqand, Toshkent hunarmandlarining sanʼatlaridan bahramand boʻlib kelishyapti. Buxoroda ijod qilib kelayotgan usta Alisher Haydarov yaratgan sanʼat asarlari butun dunyoga maʼlum va mashhurdir. Buxoroga kelgan zargarlik mahsulotlari bilan qiziqqan sayyohlar uning uyidagi ustaxonasiga ham tashrif buyurishadi. Tilla va kumushdan yasalgan bejirim buyumlar kishini hayratga soladi. Hozirgi kunga kelib usta XV – XVI asr zargarlik buyumlarini qayta jonlantirish, yoʻqolib ketayotgan zargarlik buyumlarini qayta tiklash ishlari bilan astoyidil shugʻullanmoqda.

Misgar ustalar koʻpincha Buxoroning diqqatga sazovor joylarini mis tovoqqa uyib uning har bir detaligacha eʼtibor berib, qalb qoʻridan joy berib yasashadi. Horijiy mehmonlar bunday yuksak sanʼat asarini yaratayotgan ustalarga qoyil qolmasdan ilojlari yoʻq albatta. Oftobalar, patnislar, piyolalar yasash shu darajada yuksalganki ularga qarab inson koʻzlari quvnaydi, qoʻl mehnati bilan yaratilgan goʻzallik kishiga huzur bagʻishlaydi.

Bizga maʼlumki Buxoroda qadimdan hunarmandlar alohida – alohida mahalla boʻlib yashashgan. Zargarlar – zargaron, misgarlar - misgaron, kosagaron,

sobungaron, charmgaron, holvapazon, so`fiyon, tagbandbafon, bo`yrabafon va hokazo mahallalari bo`lgan. Ular turmush va savdo uchun kerakli mahsulotlarni o`z qo`l mehnatlariga tayangan holda yaratganlar. Bizga ma`lumki Buxoro hunarmandchiligi ming yilliklarga borib taqaladi. Shaharlar vayron bo`lib yer yuzidan yo`q bo`lgan taqdirdaham hunarmandchilik tufayli o`sha joyda qayta tiklangan. Hunarmandchilikni inson yaratgan mo`jizasi degan bo`lardim. Hunarmandchilik hayotning bir bo`lagi bo`lib, insonlar shug`ullanadigan kundalik turmush tarziga aylanib qolgan. Milliy hunarmandchiligimizda qanchadan qancha o`zgarishlar bo`lib o`tgan. Misol uchun biror bir hunarmandchilik turini oladigan bo`lsak ular avval soda ko`rinishda bo`lib vaqt o`tishi bilan mukammallashib borgan.

Avloddan-avlodga o`tib kelayotgan har bir hunarmandlarning texnologiyalari juda ham ko`p. Masalan, pichoqchilikda Chust, Qo`qon va Buxoroga yetadigani yo`q. Chust pichoqlari har xil bo`lib, ular uy – ro`zg`or va sovg`a uchun mo`ljallangan. Ular pishiq metaldan tayyorlanib 2500 C<sup>0</sup> darajagacha qizitib ishlov beriladi. Bu kasb ham juda nozik bo`lib qizib turgan xanjar, yoki pichoq bo`lsin uni suvga ikkinchi marotaba tiqib olishda juda mohirlikni talab qiladi, chunki ular ikkinchi marta suvga solinganida metal meyoriga keladi va juda sifatli bo`ladi. Ozgina beparvolik uni mo`rt bo`lib qolishiga sabab bo`lishi mumkin.

Buxoroda ma`lum va mashhur usta Shokir Kamolov temirchilik bilan uzoq yillardan buyon oilaviy shug`ullanib kelishmoqda. Temirchilik ustaxonasi muzey sifatida ham turistlar uchun xizmat qiladi. Ular yasashgan qaychilar laylakga, turli xil qushlar shakliga o`xshab ketadi, bu ham ustaning mohirligini ko`rsatib turadi. Bir parcha metaldan tayyorlangan geometrik shakllar yasash va unga ishlov berish juda qiyin, bu esa horijiy mehmonlarning e`tiborini tortadi. Ular uchun hunarmandchilik mahsulotlarining qanday uslublarda yasalishi, nimalar ishlatilishi barcha barcha juda qiziq.

Shuni aytib o`tish kerakki, yuqorida zikr etib kelingan ustalarning hunarmandchilikning sir asrorlarini yo`qotmasdan, unutmagan, eng asosiysi yashirmagan kelajak avlodga, farzand-nabiralariga, shogirdlariga o`rgatib kelishmoqdalar.

**Birinchi bob bo'yicha xulosa.** Birinchi bob turizmni rivojlantirishda hunarmandchilikning o'rnini deb nomlangan bo'lib, unda O'zbekistonda mavjud hunarmandchilikning turlari:

- Zargarlik san'ati;
- Zardo'zlik san'ati;
- Misgarlik san'ati;
- Ganchkorlik san'ati;
- Yog'och o'yimakorlik san'ati;
- Pichoqchilik san'ati;
- Kashtachilik san'ati;
- Do'ppi do'zlik san'ati;

- Gilam to'qish san'ati kabi turlari, tarixi va tavsilotlari hamda O'zbekistonda hunarmandchilik san'atiining rivojlanish holati haqida kengroq yoritib berishga harakat qildim.

## **II BOB. REGION TURIZMDA BUXORO HUNARMANDCHILIKNING TUTGAN O`RNI**

### **2.1. Milliy turizm jozibadorligini shakllantirishda hunarmandchilikning o`rni**

Bugungi kunda turizm bozor iqtisodiyotining ajralmas qismi bo`lib, dunyoning ko`pgina mamlakatlarida tezkorlik bilan rivojlanayotgan tarmoqqa aylanib bormoqda.

Turizm – iqtisodiyotning alohida va muhim tarmog`igina emas, balki tashqi munosabatlarning har tomonlama rivojlanishiga, yaxshi qo`shnichilik munosabatlari o`rnatilishiga, xalqlar madaniyati, an`analari, san`ati ko`nikmalari hamda urf-odatlari bilan keng tanishishda ko`maklashadi.

O`zbekiston xalqaro va mintaqaviy turizmni rivojlantirish uchun zarur barcha resusrlarga, salohiyatga va ulkan imkoniyatlarga ega.

Millatimizni, turizm industrustiyasini rivojlantirish juda muhim ekanligini inobatga olib, birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov juda muhim hujjatlarni jumladan, O`zbekiston Respublikasining Buyuk Ipak Yo`lini qayta tiklashdagi ishtirokini faollashtirish, respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish chora tadbirlari to`g`risida”gi Qarorini imzoladi.

1999 yil 20 avgustda qabul qilingan “Turizm to`g`risi”dagi Qonun bugun mamlakatimizda turizmni tubdan isloh qilish, sohada zamonaviy bozor tendensiyalarini jalb qilish, kadrlar bilan ta`minlashning huquqiy asoslarini ta`minladi. Bu qonun respublikada zarur infratuzilmaning keng tarmog`iga ega bo`lgan qudratli turizm industriyasini vujudga keltirishda yangi istiqbol va imkoniyatlarni yaratdi.

Respublikada turizm sohasida gap ketganda, eng avvalo, butun jahonni hayratga soluvchi Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy va me`moriy yodgorliklarga boy qadimiy shaharlar ko`z o`ngimizga keladi. Navoiy shahridan 40 chaqirim narida Qoratog`ning janubiy yon bag`rida joylashgan Sarmishsoy tabiiy tarixiy yodgorlikdir. 1958 yilda A.Muhammadjonov tomonidan Sarmishsoy topilgan bo`lib, 1966 yildan hozirgacha juda ko`plab arxeolog olimlarimiz tomonidan o`rganilmoqda. Sarmishsoy darasi qoyatoshlariga 4 mingga yaqin rasmlar ishlangan bo`lib, qadimgi ajdodlarimiz

yaratib qoldirgan ajoyib, betakror san`at, ma`naviy madaniy yodgorligi hisoblandi. Bugun “Zangori osmon ostidagi muzey” tarifini olgan Sarmishsoy tabiiy tarixiy yodgorligi sayyohlarning sevimli maskaniga aylangan.

Yana ana shunday maskanlardan biri bu - Ark qo`rg`oni hisoblanadi. Buxoro Arki shaharning qadimiy qo`rg`oni, arxeologik yodgorligi hisoblangan. Buxoro Arkini Siyovush qurdirgan. VII asrda Buxoro hokimi butun vayrona holda yotgan Arkni qayta tiklagan. Ark oldida katta maydon va uning atrofida savdogar va zodagonlarning yuzlab qo`rg`onchalari bo`lgan. Qo`rg`onchalar ayni paytda istehkom xizmatini ham o`tagan. Qo`rg`on yonida asosiy shahar Shaxriston joylashgan. Shaharning avval 4, keyinroq 7 darvozasi bo`lgan. VIII asrda Shaxriston kengaytirilib, atrofi 11 darvozali devor bilan o`ralgan.

943- yilda Nasr II Registonda Dor ul-mulk saroyi va 10 ta devonxona qurdirgan. 9-10 asrlarda Markaziy Osiyo me`morchiligining noyob namunasi - Somoniylar maqbarasi yaratilgan. 11-12 asrda 13 asr boshlarida savdo va hunarmandchilikning rivojlanishi natijasida Buxoroda qurilish keng quloch yozgan. Hozirgi davrgacha qurilish va tamirlash ishlari davom ettirilmoqda. Turistlarni bu qo`rg`on va maqbaralar hanuzgacha hayratga solib kelmoqda.

Markaziy Osiyo 14-17 asrda san`atning turli sohalari rivojlangan. O`zbekistonda miniatyura yo`nalishi va badiiy bezakli kitoblar yaratilgan. Akademik B.B.Bartol`d bu haqida “Turkistonning Old Osiyoga bo`lgan tasiri qanchalik uzoq davom etgani shu faktdan ma`lum: Sulton Boyazid II davri (1481-1512)da rassomchilik san`atini dastlab Turkiyaga keltirgan kishi o`zbek san`atkori Bobo naqqosh edi”,- deb yozadi.

16 asrdan boshlab Buxoro miniatyura san`ati rassomlik sohasida O`zbekistonda Markaziy o`rin egallaydi. Hirot Shayboniyxon qo`l ostiga o`tgach, Sulton Husayn Mirzo saroyi ustaxonasidagi rassomlar, asosan Buxoroga kelib ijod qiladilar va Markaziy Osiyo miniatyura an`analariga xos asarlar yaratadilar. Hozirgi kunda miniatyura san`ati davr bilan hamnafaslikda uyg`unlashib davom ettirilmoqda. Shaxriston bozori atrofida amaliy san`atning har bir jabhasi hunarmandlar tomonidan o`z xalqimiz, chet el sayyohlarini o`ziga rom etmoqda. Bunda miniatyuradagi bo`yoqlarning rangi tiniq va yorqin, voqea va hodisalar ifodasi sodda, kishilarning

qiyofasi, kiyimlari va uy-roʻzgʻor buyumlari Oʻzbekistonga xosligi bilan, imoratlar koshinli ayvonlar, peshtoqlar, ayvonchali minoralar, afsonaviy tabiat manzaralari fonida tasvirlangan, osmon moviy, oltin rangda, gul va maysalar, bodom va shaftolizorlar, suv - kumush rangda ifoda etilganligi bilan chet el sayyohlari diqqatini oʻziga qaratmoqda.

Oʻzbekistonning eng qadimiy madaniyat oʻchogʻi hisoblangan Buxoroda amaliy sanʼatning turi oʻzbek kashtachiligi gulzor va bogʻlarni eslatadi. Kashtachilikda guldasta, majnuntol, quyosh, daraxt shohiga qoʻngan qushchalar, hatto hayvon va odam tasvirlari, soʻzanalar rangdorligi, shakllarning turli-tumanligi nihoyatda nozik did bilan tikilganligini koʻrgan har bir inson qayerdan boʻlishidan qatʼiy nazar xarid qilmasdan iloji yoʻq.

Hozirgi vaqtda Buxoroda Boʻyrobolik yaʼni, qamish poyalaridan uy-roʻzgʻor buyumlari turli savatlar, sumkalar, oʻrindiqlar, yelpigʻichlar, meva solinadigan yassi savatlar, bundan tashqari, masjid va imoratlar qurilishida ishlatilishi bilan dam olish maskanlarida, mehmonxonalarda boʻyrodan foydalanib, oʻtov, chodirlar dam olishda qulay, salqin va oʻzlarini erkin, qadim afsonalar olamiga kirganday “Xayoliy sayohat” dek turistlar oʻzlarini his qilmoqdalar.

Oʻzbek amaliy bezak sanʼatini dunyoga tanitgan yana bir muhim soha kandakorlik, yaʼni metallardan yasalgan badiiy buyumlarga oʻyib yoki boʻrtiq qilib naqsh ishlash kasbidir. Bu badiiy hunarmandchilik ham oʻlkamizda qadimiy davrlardan maʼlum boʻlib, u oʻz qadimiyligi bilan kulolchilikdan keyin ikkinchi oʻrinda turadi. Hozir Buxoroda yuzdan ortiq kandakorlar uctalar shahrimizning meʼmoriy obidalari bilan diqqatga sazovor joylarida ustoxonalar ochib ijod qilmoqdalar. Ular bugungi kunda ishlab chiqarayotgan maxsulotlarini jozibadorligini, xaridorgirligini oshirish maqsadida islamiy, girix, ramziy naqshlar va shahrimizdagi meʼmoriy obidalar tasvirlarini qoʻllab turli xil shakllarda sovgʻabop buyumlar tayyorlamoqdalar. Ular naqsh zaminiga issiq va sovuq laklardan foydalanib ranglar ishlatish, miniatyura, naqqoshlik, yogʻoch oʻymakorligi kabi amaliy sanʼat turlari bilan uygʻunlikda zamonaviy uslublarda ijod qilishmoqdalar.

Buxoroda amaliy san`atning eng sevimli va qadimiy hunar turlaridan biri bu ganchkorlik va yog`och o`ymakorligidir. Hozirda qandil, navo, ship kabi me`morchilik detallari ganchdan tayyorlanilmoqda. Madaniyat saroylari va ma`muriy binolarning ichi va tashqi qismini bezatishda ganchkorlikdan foydalanilganligi yog`och o`ymakorligida eshik, deraza, qutichalar, ustunlar, panjaralar, o`yinchoqlar, musiqa asboblari bezash: dutor va tanbur, chang va nay, torlarda suyk va sadaflardan qadalgan chiroyli toshli naqshlar kishini hayratga soladi.

Amaliy san`atning naqqoshlik turida har bir xalq o`zicha ijod qilgan. Yog`och yuziga o`simliksimon naqsh rasmi bo`lsa, birida islimi - egri chiziqli o`simlik elementlaridan iborat naqsh, birida guruh to`g`ri chiziqli geometrik shakl hosil qiluvchi naqsh, asosiy elementlar yaproq, gul, g`uncha, kurtak, qalampir, meva, poya, anor, bodom kabilar hisoblanadi.

O`zbek kulolchiligidagi badiiy uslub uzoq davr davomida shakllanib, ayrim tumanlarda idish-tovoqlar turlari va naqshlarining o`ziga xosligi saqlanib kelmoqda. Idishlarga beriladigan naqshlar asosan qalami, chizma yoki xarroji uslubida amalga oshirilgan, ba'zan ular birgalikda ishlatilgan.

Kulolchilik O`zbekistonning hamma joyida uchraydi. Ammo badiiy buyumlar yaratishda G`ijduvon kulolchiligi alohida o`rniga ega bo`lib, qadimdan mashhur bo`lgan. G`ijduvon kulollari yaratgan sirli idish va sopol buyumlar o`zining nozik va murakkab naqshlari, bo`yoqlar koloriti, ayniqsa, sopol idishlari o`zining rang boyligi va qatlamliligi bilan ko`zga tashlanadi.

O`zbekistonda miliy va amaliy san`at va hunarmandchilikni rivojlantirishda Respublika Vazirlar Mahkamasining 10 VII 346- sonli qarorida 1997- yilgi "Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san`atini yanada rivojlantirishni davlat yo`li bilan qo`llab quvvatlash chora - tadbirlari to`g`risida"gi qarori asosida "Musavvir" ilmiy ishlab chiqarish markazi tashkil etilganligi uning qoshida "Hunarmand" uyushmasi faoliyat ko`rsatilishi minglab tajribali, yosh ustalar ishini mahalliy amaliy san`atni milliy badiiy an`analarini rivojlantirib, yuksak badiiy saviyali asarlar yaratib xorijiy mamlakatlarda o`tkazilayotgan qator ko`rgazmalarda o`z asarlari bilan qatnashib kelmoqda.

## **2.2. Buxoroda yo`qolib borayotgan hunarmandchilik turlarini qayta tiklash amaliyoti**

O`zbekistonimizning turizmida tutgan o`rnini oshirish uchun ularni asrab avaylashimiz va ulardan unumli foydalanishimiz zarur. Chunonchi ular bizning o`zligimizni anglatib turadi. Hunarmandchiligimizni rivojlantirish va shu bilan birga chet ellik sayyohlarni o`zimizga jalb qilish bizning ustuvor maqsadimiz bo`lmog`i zarur. Prezidentimiz tashabbusi bilan tarixiy qadamjolarining qayta rekonstruksiya qilinishi, hunarmandchiligimizning rivojlanishida hunarmandlarni qo`llab quvvatlashlari bularning barchasi o`zligimizni saqlab qolish, ming yillardan buyon saqlanib kelayotgan hunarmandchiligimizni yuksaltirishga qaratilgan g`amxo`rlik deyish mumkin.

Biz hozirgi kunda turizm sohasida, uncha katta tajribaga ega bo`lmagan, faqat tanishuv turizmiga xos davlatmiz. Tarixiy obidalarimiz, milliy hunarmandchiligimiz, udumlarimiz, an`analarimiz bularning barchasi bizning boyligimiz hisoblanadi. Lekin uning ochilmagan qirralari juda ko`p. Undan qancha daromad olish mumkinligi haqida gap ketganda esa YIM ning 30 % ni tashkil etadi. Chunki hozirda yurtimizga tashrif buyurayotgan sayyohlar bizning tarixiy obidalarimiz bilan tanishish va boy hunarmandchiligimizdan bahramand bo`lish maqsadida yurtimizga tashrif buyurishayapdi.

Buxoro ko`p yillar davomida Buyuk ipak yo`lida ko`p turdagi mahsulotlar bilan savdo qilishning eng muhim markazlaridan bo`lib kelgan. Shahar azaldan kandakorlik mahsulotlari, zardo`zlik buyumlari, ip gazlamalar, ipak va baxmal, zardo`zlik san`ati va uy-ro`zg`or uchun badiiy buyumlarning xilma – xilligi bilan shuhrat qozongan. Shu sababli ham qadimiy shahar ana shu o`ziga xos bayramlarni o`tkazish joyi qilib tanlanadi.

Hunarmandchilik buyumlarning savdo yarmarkasida bo`larkansiz, taqdim etilgan ishlarni xilma-xilligidan ko`zlar quvonadi, hayratdan lol qolasiz: har bir mahsulotni yaratishda juda ko`p mehnat va sabr-toqat talab qilinadi.

Ijodkorlar asarlari yarmarkalarda haqiqatan ham ko`p. Zardo`zlik, kulolchilik, kashtachilik, zargarlik, yog`och o`ymakorligi – bular taqdim etilgan ishlarning faqat

bir qismi, mehmonlar ular orasidan esdalik uchun hunarmandchilik mahsulotlarini faol tarzda tanlaydilar.

Yurtimizga tashrif buyurgan sayyohlar O'zbekistonning ajoyib tarixiy merosi, uning amaliy san'ati, o'ziga xosligi, xususiyatlari, milliy urf-odatlar va an'analarni o'rganishlari mumkin. Tashkil etilayotgan festivallar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Xalqimizga xos bo'lgan milliy xususiyatlari bilan birga madaniy merosni saqlashga, xalq hunarmandchiligini targ'ib qilish va qo'llab-quvvatlashga hamda ularni yanada rivojlantirishga imkon beradi

**Ikkinchi bob bo'yicha xulosa** shundan iboratki, Buxoro hunarmandchiligining region turizmida ahamiyati deb nomlanadi. Bu bobda milliy turizm jozibadorligini shakllantirishda hunarmandchilikning o'rni, uning istiqbollari, yo'qolib borayotgan hunarmandchilik turlarini qayta tiklash amaliyotiga bag'ishladim. Bundan tashqari, o'zbek amaliy bezak san'atini dunyoga tanitishda o'zining hissasini qo'shgan san'atkorlar hamda ularning ilmiy-amaliy ishlari haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.

**III BOB. BUXORO HUDUDIDA TURIZMNI YANADA  
RIVOJLANTIRISHDA HUNARMANDCHILIK SALOHIYATIDAN  
FOYDALANISH YO'LLARI**

**3.1. Hududda milliy hunarmandchilikning rivojlanish holati**

O'zbekiston Respublikasi xalq ustalari, hunarmandlari va musavvirlari "Hunarmand" uyushmasi va uning viloyat boshqarmalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 31-martdagi "Xalq amaliy san'ati hunarmandchiligini rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF 1741-sonli farmoniga asosan tashkil etilgan. Ushbu qarorga binoan uyushma a'zolari daromad solig'idan ozod etilganlar. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 26-dekabrda PF 4589-sonli farmoniga asosan hunarmandlarga berilgan imtiyozlar 2017-yil 1-yanvarga qadar uzaytirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 28-martdagi 3588-sonli farmoni ilovasida xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'ati buyumlari asosiy turlari sifatida quyidagi 25 turdagi hunarmandchilik yo'nalishlari kiritilgan.

1. Ganch o'ymakorligi;
2. Yog'och o'ymakorligi;
3. Suyak o'ymakorligi;
4. Tosh o'ymakorligi;
5. Yog'ochdan tayyorlangan xalq hunarmandchilik maxsulotlari;
6. Metall va tunikadan yasalgan buyumlar;
7. Qilich, xanjar va pichoqlar;
8. Kandakorlik (misgarlik) buyumlari;
9. Chinni, fayans, va kulolchilik buyumlari;
10. Qimmatbaho metallardan zargarlik buyumlari;
11. Qo'lda to'qilgan gilam to'qimachiligi;
12. Qo'lda to'qilgan gazlamalar va qo'l to'qimachiligi;
13. Shisha buyumlar;
14. Zardo'zlik buyumlar;
15. Kashtachilik buyumlar;

16. Gul bosilgan gazlamalar va choklik buyumlar;
17. Milliy choponlar va do'ppilar;
18. Musiqa asboblar;
19. Minyatura, rang tasvir, naqqoshlik va sirlangan buyumlar;
20. Hajmli va shaklli qoliplarda qo'yilgan buyumlar;
21. Mayda haykaltaroshlik buyumlar;
22. O'yinchoqlar;
23. Qo'lda to'qish;
24. Charm maxsulotlari va poyafzal;
25. Yodgorlik buyumlar;

“Hunarmand” uyushmasi ijodiy tashkilot bo`lib, uning asosiy vazifalari va maqsadi quyidagilardan iborat.

Unut bo`lgan xalq hunarmandchilik turlarini qayta tiklash, mulkchilik shaklidan qa`tiy nazar, xalq amaliy san'ati an'analari asosida faoliyat yuritayotgan xalq ustalari, hunarmandlar, amaliy san'at mutaxassisleri hamda ijodkor yoshlarning faoliyatlarini muvofiqlashtirish, ular o`rtasidagi o`zaro hamkorlik va erkin raqobat muhitini yaratish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarni amalga oshirish, ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, iqtidorli bolalar va yoshlarni moddiy va ma'naviy rag`batlantirish, ijtimoiy himoyalash, hayriya va homiylik faoliyatlarini amalga oshirish. Shuningdek, xalq amaliy san'ati an'alarini saqlagan holda, yuqori saviyadagi xalq amaliy san'ati buyumlari namunalarini yaratish va qayta tiklashni o`rgatishga tarbiyalash uchun belgilangan tartibda “Usto-Shogird” maktablarini tashkil etish, hunarmandlarga kichik mexanizatsiya, asbob-uskunalar, xom-ashyo bilan ta'minlash, hunarmandlar ishlarini xorijga reklama qilish, o'zlarini chet ellarda tashkillashtiriladigan savdo ko'rgazmalari va festivallarga chiqarish, kim-oshdi savdolarini tashkil etish, respublika va xorij ommaviy axborot vositalari orqali turli reklamatsion ko'rsatuv eshittirishlar tashkil etish, usta hunarmandlar faoliyatini yorituvchi bukletlar chop qilish, hunarmandlar haq – huquqlarini bilishlari hamda

qonunlardagi yangiliklar haqida seminarlar o'tkazish, ustalarni davlat mukofotlariga tavsiya etish, ustaxonalarni ta'mirlash va qurishga ko'maklashishdan iborat.

Bugungi kunda Buxoro "Hunarmand" boshqarmasi va uning tuman, shahar bo'limlarida 1900 nafar hunarmandlar ro'yxatdan o'tgan, shularning 1300 nafarini xotin-qizlar tashkil qiladi.

O'tgan davr ichida G'ijduvon tumanida "G'ijduvon kulolchilik markazi", Vobkent tumanida "Hunarmandchilik markazi", Buxoro shahrida "Buxoro mis kandakorligi", "Sovg'a" zardo'zlik markazi, "Buxoro zargarligi", "Buxoro ipak gilamlari" va Shofirkon tumanida "Kashtado'zlik" maktablari tashkil etildi. Yuqorida zikr etilgan markazlarga uyushma hisobidan 20 mln. so'mdan ortiq mablag` qurilish, ta'mirlash va asbob uskunalar bilan ta'minlash uchun ajratildi. Ushbu maktab va markazlarda 2000 dan ortiq yoshlar hunar sirlarini o'rganishdi. Hozirda ular mustaqil faoliyat ko'rsatishmolda. Viloyatdagi ishsiz yoshlarga kasb-hunar o'rgatish maqsadida, hozirda viloyatda 55 ta "Usto-shogird" maktablari faoliyat ko'rsatmoqda, bu maktablar 1500 dan ortiq ishsizlarga hunar o'rgatildi.

Viloyatdagi mavjud 80 ta kasb-hunar kollejarining aksariyatida hunarmandchilikning bir necha turlari o'quv yo'nalishi sifatida kiritilgan bo'lib, 2016-yil bitiruvchilaridan 450 nafarining ishlab chiqarish amaliyoti "Usto-shogird" maktablarida o'talib, shularning 130 nafari uyushma a'zoligiga imtiyozli ravishda qabul qilindi.

"Hunarmand" uyushmasi va uning a'zolari Davlat tomonidan doimiy qo'llab-quvvatlanib kelinadi. Viloyat hokimining 2013-yil 20-dekabrda 233-F sonli farmoniga asosan "Hunarmandlar rastasi" ni qurish uchun Buxoro shahrining Ibn Sino va Afrosiyob ko'chalari kesishmasidan 42 ta er maydoni hunarmandlarga bepul ajratildi. 2015-yilda qurish ishlarini amalga oshirish rejalashtirilgan. Ushbu maskan kelajakda viloyatimiz turizm salohiyatini yanada rivojlantirish yo'lida xizmat qiladi.

Uyushma a'zolari Respublika Prezidenti Sovrini uchun an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan "TASHABBUS" ko'rik tanlovlarida faol qatnashib, 1998-yilda 1-o'rin, 1999-yilda 1-o'rin, 2001-yil yaxshi tadbirkor ayol nominastiyasi, 2003-yilda 3-o'rin, 2005-yilda 2-o'rin, 2006-yilda – yoshlarning murabbiysi nomenastiyasi,

2008-yilda 3-o'rin, 2009-yilda 1-o'rin, 2012-yilda 2-o'rin, 2013-yilda 1-o'rin, 2017-yilda 1-o'rinlarni qo'lga kiritdilar. Bu Respublika bo'yicha eng yuqori ko'rsatgichdir. YuNESKO va KAKSA tashkilotlarining sifat sertifikati bilan 40 ta usta taqdirlangan. YuNESKO ning "Mohir hunarmand usta" sertifikati bilan 10 ta usta taqdirlangan. 2013-yilda dunyoning 10 ta davlatida o'tkazilgan milliy hunarmandchilik maxsulotlari ko'rgazmalarida Buxorolik kandakor ustalarning ishlari birinchi o'ringa munosib ko'rilib, "Sifat uchun oltin yulduzi"ga sazovor bo'ldilar. Uyushma a'zolaridan zardo'z usta M.Temirova "O'zbekiston qahramoni" unvoni, kulol usta A.Narzullaev "O'zbekiston xalq ustasi" unvoni va "Do'stlik" ordeni, "Nihol" mukofoti laureati, mis kandakor usta R.Fatullaev "Do'stlik" ordeni, kulol usta K.Boboeva, zardo'z ustalar Sh.Soxibova va R.Yunusova hamda temirchi usta Sh.Kamolovlar "Mehnat Shuhrati" medali, zardo'z ustalar B.Jumaev, M.Farmonovalar "Shuhrat" medallar bilan taqdirlanganlar. Uyushmaning 100 dan ortiq a'zolari AQSh, Yaponiya, Frantsiya, Gretsiya, Italiya, Angliya, Shotlandiya, Shvestariya, Shvestiya, Germaniya, Chexiya, Malayziya, Hindiston, Pokiston, Afg'oniston, Eron, Rossiya, Gruziya, Armaniston, Ozorbayjon, Tojikiston, Qozog'iston, Kirgiziston va Turkmaniston mamlakatlarida hamda Respublikamizda tashkillashtirilgan turli ko'rgazma va ko'rik-tanlovlarida qatnashib, sovrinli o'rinlarni olishgan.

Viloyat «Hunarmand» uyushmasi 1997-yil oktyabr oyida viloyat hokimining qarori bilan tashkil etilgan. Viloyat hokimining qaroriga binoan «Modarixon» madrasasi uyushmaga foydalanish uchun berilgan. Uyushma (2008 yildan boshqarma) aparati 5ta shtatidan iborat. Boshqarmaning yillik ish rejasi, shtat birliklari va kirim – chiqim smetasi Respublika "HUNARMAND" uyushmasida tasdiqlangan.

Boshqarma ijodiy tashkilot bo'lib, boshqarma nizomida unut bo'lgan xalq hunarmandchilik turlarini qayta tiklash, hunarmandlarga kichik mexanizastiya, asbob-uskunalar, xom-ashyo bilan ta'minlash, hunarmandlar ishlarini xorijga reklama qilish, kim ochdi savdolarini tashkil etish, "Usto-shogird" maktablarini tashkil etish, respublika va xorij ommaviy axborot vositalari orqali turli reklamastion kursatuv –

eshtirishlar tashkil etish, usta hunarmandlar faoliyatini yorituvchi bukletlar chop qilish, hunarmandlar haq - huquqlarini bilishlari hamda qonunlardagi yangiliklar haqida seminarlar o`tkazish, ustalarni davlat mukofotlariga tavsiya etish, ustaxonalarni ta'mirlash, qurishga ko`maklashish ko`rsatilgan.

O`tgan davr ichida G`ijduvonda "G`ijduvon kulolchilik markazi", Vobkent tumanida "Hunarmandchilik markazi", Buxoro shahrida "Buxoro mis kandakorligi", "Sovg`a" zardo`zlik markazi, "Buxoro zargarligi" maktabi, Buxoro shahrida 23 son o`rta maktabda 5-sinfdan boshlab hunarmandchilikka ixtisoslashgan "Hunarmandchilik" sinflari, "Buxoro ipak gilamlari" maktabi va Shofirkon tumanida "Kashtado`zlik" maktablari tashkil etilmoqda. Yuqorida zikr etilgan markaz va maktablarga boshqarma hisobidan 5000000dan ortiq mablag` qurish, ta'mirlash va asbob uskunalar uchun ajratilgan. Shu maktab - markazlarni 2000 dan ortiq yoshlar bitirib chiqib, hunar o`rganishgan. Hozirda ular mustaqil faoliyat ko`rsatishmoqda. Viloyat hokimligi mehnat va aholini ijtimoiy muxofaza qilish bosh boshqarmasi bilan viloyatdagi ishsiz yoshlarga kasb-hunar o`rgatish maqsadida «Usto-shogird» maktablari tashkil etilib, jami 2 mindan ortiq ishsizlarga hunar o`rgatish ko`zda tutilmoqda. Bu bilan bizning yoshlarimizning ish bilan taminlanishi va o`z - o`zi bilan roqabatni vujudga keltiradi va hunarmandchilik yuksaladi. Yangi turdagi suvenirilar ishlab chiqarish yo`lga qo`yiladi.

### **3.2. Milliy hunarmandchilik mahsulotlarimizning sayyohlar tomonidan baholanishi**

Buxoro shahrida har yili o`tkazilib kelinayotgan "Ipak va ziravorlar" festivalida ko`plab turli millatdagi sayyohlar hamda festivalda o`zlarining mahsulotlari bilan qatnashib kelayotgan hunarmand ustalarning soni yildan yilga o`sib kelmoqda.

Mana shu festival davomida men anketa so`rovnomasini olib bordim. So`rovnoma 7ta savoldan iborat bo`lib, 30 nafar xorijiy sayyohlar ishtirok etishdi. Ular anketadagi barcha savollarga to`liq javob berishdi.

Olib borilgan anketa so`rovnomamiz quyidagicha:

## SO`ROVNOMA!!!

1. Siz bizning an`anaviy qo`lda tayyorlangan mahsulotlarimiz bilan tanishmisiz?



2. Ular sizga yoqadimi?



3. Nima deb o`ylaysiz ular shahrimizni har tomonlama o`zida mujassam etganmi?



4. Nima deb o`ylaysiz ularni suvenir sifatida sotin olarmidingiz?



5. Har bir viloyatga xos bo`lgan suvenirnlarni uchratdingizmi?



6. Hunarmandchilik mahsulotlari o`z brendlari ostida ishlab chiqarilishini xohlaysizmi?



7. Kelajakda shahrimizda ishlab chiqarilayotgan suvenirnlarda qanday o`zgarishlar bo`lishini xohlardingiz?

---

---

SO`ROVNOMATI TO`LDIRISHDA YAQINDAN YORDAM  
BERGANIZ UCHUN KATTA RAHMAT!

## QUESTIONARY !!!

1. Are you familiar with our traditional handmade products?



2. How do you like them?



3. Do you think they represent our city in all terms?



4. Do you think they are good enough to buy as souvenirs?



5. Did you find specific handicraft souvenirs at all touristic destinations?



6. Do you think handmade products should be produced under special brand?




7. What changes would you like to see about the handmade products of our city in the future?

---

---

THANK YOU FOR ATTENDING IN OUR QUESTIONARY!!!

## 1. Siz bizning anʻanaviy qoʻlda tayyorlangan mahsulotlarimiz bilan tanishmisiz?




- Sayyohlarning 10% hunarmandchilik mahsulotlari bilan tanish emas;
- Sayyohlarning 20% hunarmandchilik mahsulotlari bilan qisman tanish;
- Sayyohlarning 37% hunarmandchilik mahsulotlari haqida maʼlumotga ega;
- Sayyohlarning 33% hunarmandchilik mahsulotlari haqida toʻliq maʼlumotga ega.

## 2. Ular sizga yoqadimi?




### 3. Nima deb o`ylaysiz ular shahrimizni har tomonlama o`zida mujassam etganmi?




- Sayyohlarning 7% hunarmandchilik mahsulotlari shahrimizni har tomonlama o`zida mujassam etmaganligini ko`rsatdi;
- Sayyohlarning 17% hunarmandchilik mahsulotlari shahrimizni har tomonlama unchalik o`zida mujassam etmaganligini ko`rsatdi;
- Sayyohlarning 50% hunarmandchilik mahsulotlarida shahrimiz mujassam etganligini ko`rsatdi;
- Sayyohlarning 27% hunarmandchilik mahsulotlari shahrimizni har tomonlama o`zida mujassam etganligini ko`rsatdi.

#### 4. Nima deb o`ylaysiz, ular suvenir sifatida sotib olarmidingiz?




- Sayyohlarning 3% hunarmandchilik mahsulotlarini suvenir sifatida sotib olishni unchalik xohlamadi;
- Sayyohlarning 33% hunarmandchilik mahsulotlarini suvenir sifatida sotib olishni xohlashdi;
- Sayyohlarning 63% hunarmandchilik mahsulotlarini suvenir sifatida sotib olishni juda juda xohlashdi.

## 5. Har bir viloyatga xos bo`lgan suvenirni uchratdingizmi?



- Sayyohlarning 23% har bir viloyatga xos bo`lgan suvenirni umuman uchratmagan;
- Sayyohlarning 30% har bir viloyatga xos bo`lgan suvenir juda ham kam uchratgan;
- Sayyohlarning 30% har bir viloyatga xos bo`lgan suvenirni oz uchratgan;
- Sayyohlarning 17% har bir viloyatga xos bo`lgan suvenirni uchratgan.

## 6. Hunarmandchilik mahsulotlarni o`z brendi ostida ishlab chiqishini xohlaysizmi?



- Sayyohlarning 7% hunarmandchilik mahsulotlari o`z brendi ostida ishlab chiqishini xohlamadi;
- Sayyohlarning 10% hunarmandchilik mahsulotlari o`z brendi ostida ishlab chiqishi haqidagi fikri betaraf;
- Sayyohlarning 33% hunarmandchilik mahsulotlari o`z brendi ostida ishlab chiqishini xohladi;
- Sayyohlarning 50% hunarmandchilik mahsulotlari o`z brendi ostida ishlab chiqishini ijobiy qo`llab quvvatladi.



- Sayyohlarning 33% milliy turdagi hunarmandchilik mahsulotlariga qiziqish bildirishdi;
- Sayyohlarning 17% zamonaviy turdagi hunarmandchilik mahsulotlariga qiziqish bildirishdi;
- Sayyohlarning 50% milliy hamda zamonaviy uslublarni uyg`unlashtirilgan turdagi hunarmandchilik mahsulotlarga qiziqish bildirishdi.

Olib borilgan anketa so`rovlarimni tahlil qilib turib quyidagi xulosaga kelish mumkin.

Bizning hunarmandchiligimizni dunyo miqiyosida juda kam sayyohlarimiz bilishadi, lekin mamlakatimizga tashrif buyurib ko`rishganlaridan keyin unga juda yaxshi fikrlar hamda yaxshi baholarini berishadi. Ularga bizda mavjud bo`lgan turli xil hunarmandchilik san`atining namunalari hozirgacha saqlanib kelinayotganligi ularni taajubga solmoqda. Hunarmandchilik mahsulotlari ularga qiziqish uyg`otadi. Anketa so`rovnomasini tahlillash jarayonida, milliy hunarmandchiligimizning zaif va kuchli tomonlarini ko`rib chiqdim.

### **3.3. Hududda turizmni rivojlantirishda hunarmandchilik suvenirlerini ishlab chiqarish va ularning brendini yo'lga qo'yish**

Bilamizki, suvenirlar turizm sohasida turistlarni o'ziga jalb qiluvchi, ular uchun keyinchalik esdalik rolini bajaruvchi narsalar sirasiga kiradi. Hunarmandchilik mahsulotlari suvenir sifatida qo'llanilishida uning noyoblilik xususiyati muhim rol o'ynaydi. Birinchidan, mazkur suvenirlar mahalliy turistik maskanni o'zida mujassam etgan bo'lishi kerak. Shunday ekan, qanday narsa joyini o'zida namoyish ettira oladi? Suvenirlarda turli xil joy, yoki boshqa narsalarni aks ettirish mumkin bo'lsada, suvenirlar uchun faqatgina quyidagi 5 xil tushunchalar xosdir:

#### **1. Suvenirlarda rasmlarning aks ettirilishi.**

Hozirda turli xil otkritkalar yoki pochta varaqalari ommabop bo'lib boryapti. Ularda joy ko'rinishlari, tarixiy obidalar rasmlari yoki bayram tasvirlari bosib chiqarilishi uning turistlar uchun esdalik sifatida sotib olinishiga olib keladi. Chet ellik tashrif buyuruvchilar o'z mamlakatlariga qaytib ketganlarida, mana shu rasmlarga qarab o'zlarining shirin xotiralarini eslashadi.

#### **2. Ma'lum bir tarixni o'zida mujassam etgan narsalardan suvenir yaratish.**

Chet ellik tashrif buyuruvchilar o'zlari tashrif buyurgan maskanlardan shu maskanga tegishli bo'lgan narsalar qismini o'zlari bilan olib ketishga qiziqishadi. Buxoro viloyati misolida ko'radigan bo'lsak, tumanlarning o'ziga xos bo'lgan qum jinslaridan iborat bo'lgan tarixiy obida Ark (tarixiy obidalar) shaklidagi shisha idish suveniri.

#### **3. Marker bilan yozish**

Mahalliy ishlab chiqariladigan kiyimlar, ko'ylaklar, kepka kabi aksessuarlar, tarelka va piyolalarni turistlar sotib olayotgan joyning o'zidayoq ularga marker bilan joy nomi, yoki hunarmand shaxsning imzosi qo'yib berilishi tushunarli. Bu kabi suvenirlar tashrif buyuruvchilarga iliq xotiralarni baxsh etadi.

#### **4. Turistik maskanning eng mashhur tarixiy obidasining kichkina shaklini yaratish.**

Parijning Eyfel minorasi, Amerikaning Ozodlik haykali minoralari kabi, boshqa turistik maskanlarning ham o'ziga xos mashhur obidalar mavjud. Buxoroda bo'lsa, misol tariqasida Minorai Kalon yodgorligini oladigan bo'lsak, uning kichkina shaklda yaratilishi turistlar uchun jonli taassurot sifatida xizmat qiladi.

#### **5. Mahalliy mahsulotlar**

Bu kategoriya ovqatdan tortib kiyiladigan kiyimgacha bo'lgan narsalarni o'z ichiga oladi. Bunda asosan mahalliy aholiga xos bo'lgan, udumlarda kiyiladigan kiyimlar, aksessuarlar, yeyiladigan ovqatlardan tayyorlangan suvenirlar ishlab chiqariladi.

Albatta, yuqorida aytib o'tilgan tushunchalar mahsulot dizaynini yaratishda yaxshi boshlang'ich harakat bo'la olishi mumkin. Shulardan eng murakkablaridan biri bu tarixiy obidaning kichik shaklini yaratish bo'lsa kerak. Agar dizaynerga mana shu topshiriq berilsa, u bu kategoriyada kiradigan eng mos obida yoki joyni tanlashi kerak. To'g'ri Eyfel minorasi va Ozodlik haykali dunyoda shubhasiz tengsiz binolar sirasida kiradi. Lekin, ko'p turistik maskanlarda bunday mashhur obidalar mavjud emas. Boshqa tomondan olib qaralganda, yuqorida aytib o'tilgan ikki yodgorlikning mashhur bo'lishiga ularning kichkina shakldagi prototiplari emas balki, ularni ommaviy axborot vositalarida reklama qilib, millionlab dunyo aholisiga taqdim etilganidir. Shu tufayli, dizaynerlar turistlar ko'rsa, zerikib qolmaydigan shakldagi suvenirlar yaratishi, ularga har **turistik mavsumlarda yangicha ko'rinish** berishi lozim.

Marker bilan imzo qo'yish tushunchasi ham ancha eskirgan tushunchalardan biridir. Lekin shunday bo'lsada, ular doimo esdalik sifatida turistlar tomonidan sotib olinyapti. Hozirda dizaynerlar mahsulot ko'rinishini o'zgartirmasdan, marker bilan qanday imzo qo'yish shakllari ustida ham ish olib borishyapti. Shu tufayli, bu tushuncha o'zida xilma xillikni aks ettiryapti. Mahsulot borasida o'zgarishlar bo'lgani yo'q: kiyim kechaklar, mahalliy hunarmandlar tomonidan yaratilgan sopol

idishlar va boshqalar. Dizaynerlarning yangi harakatlari bu mahsulotlarga yangicha ko'rinish bermoqda.

### **Turistlarni jalb qilish.**

Suvenir mahsulotlar haqida gapirar ekanmiz, shuni aytish joizki, ko'p korxonalar o'z mijozlari qanday souvenir xohlashlaridan boxabar bo'lishadi. Bunda ular turistlarning yoshi, etnik kelib chiqishi va hayot tarzidan kelib chiqishadi. Bundan tashqari, shaxsiy qadriyatlar, hamda turizmning bu qadriyatlarga ta'siri ham hisobga olinadi. Aytib o'tilgan bu faktorlar, chet ellik mijozning souvenir sotib olishdan bo'lgan maqsadini oldindan aytib berishga yordam beradi.

Turistlarning boshqa mamlakatlarga sayohat maqsadlariga: hordiq chiqarish, atrof-muhitni ko'rish, obidalarining haqiqiyiligiga ishonch hosil qilish, sarguzasht qilish kabi sabablar kiradi. Ular qanday sabab bilan tashrif buyurishsa ham qandaydir souvenir xarid qilishadi. Masalan, tabiatga qiziqqan turistlar turli mahalliy hunarmandlar tomonidan tayyorlangan kiyim-kechaklar, idish (termizlar) va boshqa marker bilan imzolangan suvenirlar xarid qilishadi. Turli an'ana va madaniyatga qiziqqan turistlar bo'lsa qo'lda tayyorlangan mahalliy mahsulotlarni xarid qilishadi.

### **Suvenirlarni hamjihatlikda yaratish.**

Suvenir yaratish jarayoni dizaynerlar, ishlab chiqaruvchilar, turistik maskanlar hamda turizmning boshqa xizmat ko'rsatuvchi sohalarining birgalikda ishlashlariga olib keladi. Bu jarayonda, aniq bilim va ko'nikmalarga yondashilib ish ko'riladi. Suvenirlar borasidagi yangi fikr va g'oyalar yozgi hunarmand ishlab chiqaruvchi do'konlarida paydo bo'ladi. Keyin dizaynerlar mavjud g'oya asnosida bo'lajak suvenirning ilk ko'rinishini yaratishadi. Bu ko'rinish yuqorida aytib o'tilgan turizmni rivojlantirishning barcha faktorlarini o'zida mujassam etgan bo'lishi kerak. Bunda dizaynerlar o'zlariga quyidagi savollarni berishlari mumkin:

Suvenir o'zida nima mujassam etgan? U turistlarga qanday xabarni yetkazishi kerak? U o'zida qanday tarixiy voqeani singdirgan bo'lishi kerak? U orqali turistlar nimalarni yodga olishadi? – mamlakat, tarixiy obida, turistik maskan, yoki tarixiy shaxs, mif – afsona yoki ertak, region, dam olish maskani, muzey yoki an'analarni o'zida mujassam etuvchi.

U qanday qadriyatlarga ega bo'lishi kerak? – zamonaviy, innovatsion bo'lishi va shu qatorda tarixdan bir ko'zgu sifatida qaralishi, qimmatbaho bo'lishi, mehmonlar xohish istagidagi suvenir bo'lishi, noyob va ajoyib bo'lishi.

Qanday qilib suvenir mashhur bo'lishi mumkin? – korxonada brendiga ega bo'lishi, turistik maskanga xos mahsulot bo'lishi, chiroyli dizayn berilgan bo'lishligi.

Mazkur suvenirni kim sotadi? – olib sotar savdogar, turistik obidalar chiqish joyidagi do'konlar, mehmonxonalar va boshqa turizmda xizmat ko'rsatuvchi soha vakillari.

### **Turist shaxsiyatini oldindan aniqlash.**

- yoshi va oilaviy ahvoli – bo'ydoq, oilali, yoshi o'tgan shaxs;
- ijtimoiy kelib chiqishi – guruh bo'lib kelgan turistlar, yakka sayohatchi, voyaga yetgan sayohatchi, tarixiy obidalarga qiziquvchi turist, yoki amaliyotchi olim;
- geografik jihatdan kelib chiqishi – mahalliy, boshqa viloyatdan, chet ellik, Yevropalik, Osiyolik, Amerikalik;
- uning sayohatdan maqsadlari va qiziqishlari – dam olish, sayohat qilish, sarguzasht qilish, an'ana qadriyatlarni ko'rish, tabiatdan bahramand bo'lish, sport maqsadida tashrif buyurish yoki ma'lum shahar hayoti bilan tanishish;
- qanday mahsulotlarni sotib oladi – turist nazari faqat ko'pga boruvchi esdalik sifatida ishlatiladigan suvenirlarga tushadi, yoki kunlik ishlatiladigan mahsulotlar xarid qilish bilan kifoyalanadi.

Yuqoridagilarni o'rganib chiqqan holda har bir hunarmandchilik mahsulotiga o'zining shaxsiy brendini yaratish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Brend o'zi nima degan tushunchaga javob topadigan bo'lsak, brend bu – raqobatchilardan farqlanish maqsadida aniq sotuvchi yoki sotuvchilar guruhining tovarlari va xizmatlarini belgilash uchun qo'llanadigan so'z, ifoda, belgi, simvol, dizaynerlik ishi yoki ularning kombinatsiyasidir ( bu ta'rif Amerika Marketing Assosiatseyasi (American Marketing Assosiations) tomonidan ishlab chiqilgan).

Brend bu – aniq bir ishlab chiqaruvchining tovarlari yoki xizmatlarini indentifikatsiya qilish, shuningdek, uni raqobatchilar mahsulotidan differentsiya qilish uchun mo'ljallangan nom, termin, simvol yoki rasm yoki shu elementlarning

kombinatsiyasidir (Karl Bondorff, Lindbi biznes kolledji professori, “Modeli i instrumenti marketinga» asaridan olingan fikr).

Brend - aniq tovar yoki kompaniyani identifikatsiya qilish uchun qoʻllanadigan noyob ism, simvol, dizayn yoki obrazdir.

Brend – mahsulot xususiyatlari: uning nomi, qadogʻi, narxi, tarixi, obroʻ-eʻtibori, reklama qilish usulining yigʻindisidir. Brend - bu xaridorda tovardan foydalangandan keyin qoladigan taassurotlarning kompleksidir (David Ogilvi).

Brend quyidagilarda yordam beradi:

1. Tovarni indentifikatsiya qilish, yaʼni tovar ishlatilishi bilanoq tanilishi kerak.
2. Raqobatchilar mahsulotlaridan ajralish, yaʼni mahsulotni umumiy massadan ajratish.
3. Isteʼmochilarda yoqimli obrazni hosil qilish, yaʼni brend ularda ishonch uygʻotishi zarur.
4. Tovar bilan bogʻlangan turli emotsiyalarni jamlash.
5. Xaridorda sotib olish haqida qarorning paydo boʻlishi va tanlovining toʻgʻriligiga ishonch hosil qilish, yaʼni qabul qilgan qarorining toʻgʻriligidan qoniqish hissining paydo boʻlishiga yordam beradi.
6. Brend bilan oʻz hayoti obrazini assotsiatsiya qiluvchi doimiy xaridorlar guruhini shakllantirish.

Brendning xarakterli xususiyati shundaki, u unga nom bergan tovardan ajralishi va oʻzi mustaqil tovarga aylanishi mumkin. Yaʼni haqiqiy brend har doim yuqori bahoga loyiq boʻladi. Aynan shu masala u yoki bu savdo markasini brend boʻlishi yoki boʻlmasligini hal qiladi. Psixologik nuqtai nazarga koʻra, insonlar oʻzaro reklama kommunikatsiyasiga kirishish va oʻz-oʻzini namoyon qilish vositasi sifatida ham brenddan foydalanishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda men ham hunarmandchilik mahsulotlarining brendini yaratishni taklif etaman.

Bunda har bir hunarmandchilik mahsulotlarining alohida – alohida brendlari yaratilib shu brend asosida reklama qilinadi va sotiladi.

Ijodiy yondashib tayyorlangan turli xil brendlarning namunalarini ko`rsatib o`taman:

### **3.4. Buxoro shahrida turizm hunarmandchiligini ravnaq topish yo'llari**

Turizm hunarmandchiligi turli xil soha va xizmatlardan tashkil topgan bo'lib, ular o'zlariga xos ish faoliyatlariga ega bo'lishsada, bir-biriga o'xshash ehtiyojlari mavjud. Jumladan: mahsulotni rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj; ishlab chiqarishni rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj hamda bozorga kirish kabilar.

Sohalar turli xil bo'lsada hammasining maqsad vazifasi ma'lum bir mahsulot turining sifat darajasini oshirish, qo'lda yasalgan mahsulotlarning ham mahalliy aholi ham chet ellik tashrif buyuruvchilar nazaridan joy olishini ta'minlashdir. Shu bois, turizm hunarmandchiligi soha vakillari hozirgi zamon ishlab chiqarish darajasi va savdo-sotiq tamoyillaridan kelib chiqqan holda ma'lum bir reja asosida ish yuritishadi. Har bir soha uchun, u yerda qanday hunarmandchilik mahsuloti ishlab chiqarilishiga qarab, o'zlariga xos nomlariga ega bo'lishadi hamda barchalari Buxoro hunarmandchilik jamiyatiga qarashli hisoblanib, ma'lum bir brend ostida faoliyat yuritishadi. Albatta bunda barcha soha vakillarining birgalikda hamjihatlikda ishlashlari muhim bo'lib, ularning birgalikda faoliyat yuritishlari zaruriyat sanaladi, chunki, bu hunarmandchilikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Lekin bundan oldin, har bir soha vakillaridan turizmدا hunarmandchilikni rivojlantirishga xizmat qilishga bo'lgan xohishlari so'rab chiqiladi. Shundan so'ng, rozi bo'lgan vakillar bilan birinchi uchrashuv tashkil qilinib, bu jarayon uchun ma'lum talab va standartlar o'ylab chiqiladi. Uchrashuvda, tayyorlov kurslaridan o'tishi kerak bo'lgan vakillar aniqlanadi va jarayon boshlanishida qayta nazoratdan o'tkaziladi. Tayyorlov kurslarida qatnashchilar bepul o'tkazilayotgan kurslar evaziga o'z vaqtlari va resurslarini xarajat qilishadi. Bu orqali qatnashchilarning tayyorlov kursini jiddiy qabul qilishliklariga erishiladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, tayyorlov kurslardan maqsad, hunarmandlar mahsulotlarining hozirgi zamon bozor talablariga javob berishilishiga erishish, hamda bu orqali turizmni yanada rivojlantirish.

#### **Bozorga kirish**

Shu narsa ma'lumki, turistlarni mahsulotga kelishidan ko'ra, mahsulotning o'zi turistda yetib borishi osonroq. E'tiborimizni Buxoro turizmiga qaratadigan bo'lsak, bu yerda turistlar hunarmandchilik mahsulotlarini ko'pincha biror yodgorlikning

chiqish eshiklarida, mehmonxonalarda, shaharda joylashgan mahalliy do'konlarda hamda festivallarda xarid qilishadi.

Hozirgi vaqtda, qo'lda yasalgan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar mahsulot rivoji uchun zarur barcha ishlarni o'zlari qilishsada, ishlab chiqaruvchilar, dizaynerlar va marketologlar sohani rivojlantirishlari uchun o'z javobgarlik hissiga ega bo'lishlari kerak, ya'ni o'z ishlarini o'zlari bajarishlari shart.

Boshqacha qilib aytganda, ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqarish jarayonida mahoratli bo'lishlari mumkin, lekin savdo ishlarida tajribasiz bo'lishlari ham mumkin. Savdo ishi bo'lsa, marketologlarning ishlari hisoblanadi. Har bir soha o'z vakillari tomonidan bajarilishi lozim. Faqat shundagina, hunarmandchilik mahsulotlari turizmni rivojlantirishda yetarli xizmat ko'rsatadi.

### **Olib sotuvchilar**

O'zbekistonda turistik-maskanlarda turistlar uchun xizmat qiluvchi do'konlarning xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, ularning hunarmandchilik mahsulotlarini sotishlariga imkoniyat yaratib berish zarur. Yuqorida aytib o'tilganidek, keng qamrovda o'tkazilgan tayyorlov kurslari do'konlarning xizmat sifatini oshirib, ularning turistlar ehtiyojini qondirishlariga xizmat ko'rsatadi. Buxoro turistik do'konlarida mahalliy qo'lda tayyorlangan mahsulotlar savdo sotig'ini rivojlantirib, boshqa hududlar, ya'ni Xiva, Samarqand, Shahrisabz va boshqa shahar va tumanlar hunarmandchilik mahsulotlari savdo sotig'ini ham boshlash kerak.

Mahsulotlarga bo'lgan ehtiyoj oshgan taqdirda, yanada ko'proq hunarmandchilik do'konlari ochiladi yoki bo'lmasa mavjud do'konlar yirikroq qilinib quriladi. Bunda davlat tomondan sarmoyalar va bank kreditlari soha vakillariga yordam sifatida berilishi mumkin. Hunarmandchilik do'konlari joylashuvi ham turizm rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi. Ular ko'pincha, Buxoro misolida ko'radigan bo'lsak, mehmonxona yaqinlarida, turistlar ko'p qatnaydigan joylarda, yoki rejalashtirilgan hunarmandlar shaharchasida qurilishi mumkin. Bunday do'konlarni shahar chetida yoki turistlar ko'p qatnamaydigan joyda qurib, u yerga turistlar oqimini kutish behuda ish sanaladi albatta. Bundan tashqari, mahalliy qo'lda yasalgan mahsulotlar brendi va dizayni o'ziga xos bo'lishi lozim, chunki chet ellik

tashrif buyuruvchilar ularni import qilingan boshqa mahsulotlardan ajrata olishlari lozim.

### **Mehmonxona va restoranlar**

Mehmonxonalar va mahalliy hunarmand ishlab chiqaruvchilar birgalikda hamjihatlikda ishlashlari uchun shart – sharoitlar yaratib berish lozim. Mehmonxonalarni hunarmandchilik mahsulotlarini reklama qilishga va sotishga jalb qilish zarur. Ularning mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan mahsulotni kelishilgan narxlarda sotilishini, ikki tomonlama foyda bo'lishi uchun ham har ikki tomon uchun ma'qul bo'ladigan dizaynni o'ylab olishlari kerak. Faoliyat boshlanishida mehmonxonalar hunarmandlarni kerakli mahsulot hajmidan boxabar etishlari, hunarmandlar bo'lsa shu mahsulotlarni tez orada sifatli holda yetkazib berish chorasini ko'rishlari shart.

### **Mahalliy bo'lmagan bozorlarga chiqish**

Hunarmandlar o'z mahalliy bozorlari bilan kifoyalanib qolmasdan, boshqa viloyatlar bozorlariga ham o'z mahsulotlarini chiqarishlari, bunda ular reklama, transport qilish xizmati, marketing va boshqa xizmatlaridan foydalanishlari kerak.

**Quyida ishlab chiqaruvchi hunarmand va olib-sotar savdogarlar o'rtasidagi munosabatning 3 yillik rivojlanish rejasi ko'rib chiqiladi:**

#### **1-yil**

- Mavjud bo'lgan hunarmand va olib-sotar savdogarlarni tayyorlov kurslaridan o'tkazib, ularni hozirgi zamon savdo sotiq tizimi bilan tanishtirish, mijozlarga xizmat ko'rsatishni o'rgatish, mijoz xohish istaklaridan boxabar etish;
- Ularni mahalliy hunarmand ishlab chiqaruvchilar bilan tanishtirish;
- Boshqa ishlab chiqaruvchi hunarmandlarni izlab topish;
- Buxoro gid kitoblarida barcha hunarmandlar va olib-sotar savdogarlar do'konining manzillari yozib borish;
- Mahalliy qo'lda yasalgan mahsulotlarni turistlar nazaridan chetda qoldirmaslik uchun turli xil festivallar o'zkazish;
- Mahalliy qo'lda yasalgan mahsulotlarni sotishga rozilik bildiruvchi mehmonxonalarni aniqlash;

- Yil oxirida barcha soha vakillari, shu jumladan ishlab chiqaruvchi hunarmandlarni ham jamlab yillik hisobot berish.

### **2 va 3 – yillar**

- Hunarmand va olib-sotar savdogarlarning har yillik qayta tayyorlov kurslarini davom ettirish;
- Buxoroning boshqa joylarida ham ishlab chiqaruvchi hunarmandlar va olib-sotar savdogarlarni bir birlari bilan tanishtirish;
- Mavjud mahalliy hunarmandchilik mahsulotlariga brend o'ylab topish;
- Ishlab chiqaruvchilar uchun turistlar haqida, ularning qiziqish va xohishlari to'g'risidagi turli xil ko'rgazmalar o'tkazilishi;
- Mehmonxona va boshqa turizm maskanlari bilan yaqindan kelishib, ularda hunarmandchilik mahsulotlari savdo sotig'ini yo'lga qo'yish;
- Turizm savdo-sotig'ini rivojlantirish uchun hunarmandchilik faoliyatini yanada kengaytirish.

### **Hunarmandchilik mahsulotlarini reklama qilish**

Ma'lum hunarmandchilik mahsuloti brendini yaratishda uning qanchalik darajada turistlar tomonidan ma'qul ko'rilishiga bog'liq. Shu sababli, turistlarni yangi ishlab chiqarilayotgan mahsulotlardan boxabar etish, ular tashrif buyurayotgan turistik maskanda mavjud hunarmandchilik do'konlaridan xabardor etish va bundan tashqari turistlarga ma'lum mahsulot turini sotib olish sabablarini tushuntirish; noyob hunarmandchilik mahsulotlarini boshqalaridan qanday qilib ajratish o'rgatiladi. Turistik maskanlarda afisha va reklamalarda brend ostidgi yangi hunarmandchilik mahsuloti haqida doimiy yangiliklar berib turilishi ham kerak.

**Quyida hunarmandchilik mahsulotini reklama qilishning 3 yillik rivojlanish rejasi ko'rib chiqiladi:**

#### **1-yil**

- Barcha hunarmandchilik sohalari mahsulotlarini milliy brend ostiga kiritish;
- Barcha olib-sotar savdogarlarni hunarmandchilik mahsulotlarini reklama qilishga jalb qilish.

## **2 va 3 – yillar**

- Olib-sotar savdogarlar bilan hunarmandchilik mahsulotlarini reklama qilishdagi qoʻshimcha harakatlar haqida yaqindan ish olib borish;
- Milliy brend yaratib, uni rivojlanishini nazorat qilish;
- Brendni rivojlantirishda mahalliy mehmonxonalar hamda boshqa turizm taʼminotchilari bilan yaqindan ishlash;
- Tur gidlarini brenddan ogoh etish, hamda turistlar koʻp qatnaydigan joylar: tarixiy obidalar, majmua va boshqalar oldida mana shu brend ostida faoliyat yuritayotgan hunarmandlar kichik shaxobchasini tashkil qilish, va mahsulot ishlab chiqarish jarayonidan turistlarni boxabar etish.

### **Hunarmandlar mahoratini oshirish**

Hozirgi zamon standartlariga javob berish uchun hunarmandlarning umumiy mahoratlarini va ishlash prinsiplarini oshirish zarur.

Turli xil tayyorlov kurslari hunarmandlarning ish faoliyatida yakka holda ishlashlariga majbur qilgan boʻlsada, bu tayyorlov kurslari umumiy qilib olganda hunarmandchilikning turizm rivojiga katta taʼsir koʻrsatishiga olib keladi. Uni yanada rivojlantirishda tayyorlov kurslarida malakali oʻqituvchilarning mavjudligi ham muhim rol oʻynaydi. Har bir tayyorlov kurs boshlanishidan oldin, mazkur kurs hunarmandchilik sohalariga qay tarzda taʼsir koʻrsatib, sifat darajasini qanday darajada oshirishini hisob qilib olish zarur. Bundan tashqari, har bir tayyorlov kurslari doimo amaliy mashqlarni oʻz ichiga olishi, hunarmandlarning kurs davomida egallagan bilim-koʻnikmalari tajribada sinab borilishi kerak.

**Quyida turizm sohasini rivojlantirishda hunarmandlar uchun zarur boʻlgan tayyorlov kurslarining 3 yillik rejasi:**

#### **1-yil**

Turizm rivojlanishida bir xil natijaga erishish uchun hunarmandlar bilan bir qatorda boshqa xizmat vakillari, yaʼni dizaynerlar va marketologlarni ham tayyorlov kurslaridan oʻtkazish zarur. Bunda quyidagilar hisob olinadi:

- Hozirgi zamon bozorini oʻrganib chiqish;
- Turistik bozorlar sifat darajasini oʻrganib chiqish;

- Bozorlarda ma`lum hunarmandchilik mahsulotiga bo`lgan ehtiyojni aniqlash;
- Ishlab chiqarishning zamonaviy usullarini yaratish;
- Hunarmandchilik mahsulotlarining brend borasida yangiliklar qilish;
- Turistik bozorlarda hunarmandchilik mahsulotlari narx-navosini yaxshilash;
- Zarur bo`lgan holatlarda hunarmandlarga sarmoyadorlarni topib berish;
- Hunarmandlarning ish faoliyatlarini boshlashlariga imkoniyat yaratib berish.

## **2 va 3 - yillar**

Doimiy tayyorlov kurslari olib boriladi. Dizaynerlar hamda marketologlar ham tayyorlov kurslaridan o`tkazilib, hunarmandchilik mahsulotlarining turizmdagi hissasi oshirilishiga erishiladi. Bunda har bir soha vakillaridan bir xil darajadagi faollik talab qilinadi.

### **Hunarmandchilik mahsulotlari dizaynining turizm sohasi rivojlanishida tutgan muhim o`rni.**

Ma`lum bir hunarmandchilik mahsulotini yaratishda va unga o`ziga xos dizayn berishda ishlab chiqaruvchi hunarmandlarga mahalliy dizaynerlar, lozim bo`lganda chet ellik mahoratli dizaynerlar ham jalb qilinishi kerak. Ularning bir jamoa bo`lib ishlashlari mahsulotning yuqori sur`atlarda rivojlanishiga olib keladi. O`ylangan mahsulotlar mahalliy aholi qadriyatlarini va an`analarini o`zida mujassam etishi zarur, ularning turizm bozori hayotidagi tutishi kerak bo`lgan o`rni o`rganib chiqilishi kerak. Ishlab chiqarilishi kerak bo`lgan yangi mahsulot qancha xom- ashyo talab qilishi, bundan tashqari hunarmandlarning mazkur mahsulot uchun bilim-ko`nikmalari yetarli bo`lishligiga ishonch hosil qilinadi.

Shuni yodda tutish joizki, ishlab chiqaruvchi hunarmandlarning turizm bozoriga kirib borishlari ularning yaratayotgan mahsulot sifatiga bog`liqdir. Albatta, yangi mahsulotlar ustida ishlash, ularni ishlab chiqarish uchun ko`p vaqt sarflanishi mumkin. Bu jarayon ma`lum miqdorda xom-ashyolar ham talab qiladi. Bir mahsulot turi ustida 3-4 yil ham ish olib borilishi mumkin. Lekin aynan mana shu jarayon hunarmandchilik mahsulotlarini omma orasida mashhur bo`lishiga olib keladi va turistlar e`tiborini qozonishga sabab bo`ladi.

## **Quyida hunarmandchilik mahsulotini rivojlantirishning 3 yillik rejasi:**

### **1-yil**

- Mahsulot yaratishdan oldin, har bir soha vakillari malakasi baholanadi: ularning mahoratlari tekshirilib, bozor iqtisodiyotini rivojlantirishga bo'lgan qiziqishlari aniqlanadi;
- Mahsulot yaratilishiga chet ellik dizaynerlarni jalb qilish;
- Mahsulotning ilk ko'rinishlarini yaratish, zarur o'zgartirishlarni bajarish;
- Mahsulot brendi rivojlanishi uchun mahalliy dizaynerlar bilan suhbat olib borish;
- Mahsulot ishlab chiqarilgandan so'ng uning sifat darajasini tekshirish;
- Mahalliy dizaynerlar uchun tayyorlov kurslari olib borish;
- Chet ellik dizaynerlarning mahalliy dizaynerlar bilan yaqindan ish olib borishlari;
- Mahsulot ilk ko'rinishiga o'zgartirishlar kiritishni davom ettirish hamda turizm bozoriga tayyorlash.

### **2 va 3 – yillar**

- Mahalliy dizaynerlar qayta tayyorlov kurslarini doimiy olib borish;
- Turizm bozorining hozirgi sharoitidan kelib chiqqan holda mahsulotga zarur o'zgartirishlar kiritishni davom ettirish;
- Mahsulotni turizm bozoriga chiqarish.

### **Ishlab chiqarishni rivojlantirish**

Ishlab chiqarishni rivojlantirish hunarmandchilik mahsulotlarining turizm bozorida rivoj topib ketishlarida muhim omil sanaladi. Bunda ishlab chiqarishda zarur bo'lgan texnologiyalarni mavjudligi, ishlab chiqarish ish joyida hunarmandlar uchun barcha shart-sharoitlarning yaratilganligi, hunarmandlarning texnik qismlarini yuritishda bilim-ko'nikmalarga ega ekanliklari hisobga olinadi.

### **Quyida ishlab chiqarishni rivojlantirishning 3 yillik rejasi ko'rib chiqiladi:**

#### **1-yil**

- Hunarmandlar uchun zarur shart sharoitlarni yaratib berish hamda ularning texnik qismlar borasida bilim darajalarini mustahkamlash;
- Ishlab chiqarishni rivojlantirishni boshlash.

#### **2 va 3 – yillar**

- Mahsulot ishlab chiqarishni davom ettirish.

#### **Sarmoyalar va kreditlarning mavjudligi.**

Izlanishlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, Buxorodagi ko'pgina hunarmandlarda sarmoyaning kamligi aniqlandi. Bu turizm bozorida hunarmandchilik mahsulotini rivojlantirishda katta to'siq bo'ladi va buning yechimi mahalliy kichik banklar bilan hamkorlik qilishdadir.

#### **Quyida bank kreditlarini hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishga jalb qilishning 3 yillik rejasi:**

#### **1-yil**

- Kredit beruvchi banklarni aniqlash va hunarmandlarga kreditlar olib berish.

#### **2 va 3 – yillar**

- Ishlab chiqarishni rivojlantirib mavjud kreditlarni to'lab borish.

### **3.5. Buxoro hunarmandchiligini dunyo miqyosida tanitishda master klasslardan foydalanish**

Bilamizki, Buxoroda sayyohlikni rivojlantirishga qaratilgan yirik loyihalar amalga oshiriladi. Buning natijasida 2021-yilga qadar hududga kelayotgan sayyohlar soni 2 baravarga oshishi kutilmoqda. O'zbekiston prezidenti 28 may kuni Buxoroning sayyohlik salohiyatini 2017-2019 yillarda izchil rivojlantirish haqida qaror imzolangan edi. Ushbu qarorda Buxoroda zamonaviy mehmonxonlar, madaniy sog'lomlashtirish va savdo-ko'ngilochar markazlari bo'lgan "Qadimiy Buxoro" erkin turistik zona qilish belgilangan.

“Qadimiy Buxoro” yangi tashkil qilingan turistik zonahududi iyul oyining oxiriga qadar belgilab olinadi va u 10gektardan katta joyni egallaydi. Ushbu hududda tadbirkorlik bilan shug`ullanayotgann, sarmoya kiritgan korxonalar 2020-yilning 1yanvariga qadar yer, mulk, daromad, ijtimoiy muhitni rivojlantirish soliqlari hamda mikrofirmalar uchun yagona soliqlardan ozod qilinadi.

Undan tashqari Buxoroga sayyohlarni jalb qilishga qaratilgan yana bir loyihalardan biri - “Shahrison” loyihasi hisoblanadi. Bu loyiha bir nechta ikki qavatli binolardan tashkil topgan yopiq bozor va hunarmandlar shaharchasi bo`lib u yerda souvenir mahsulotlari, zargarlik buyumlari kabi hunarmandchilik mahsulotlari sotiladi.

Bundan tashqari, turizmni rivojlantirishda hunarmandchiligimiz nechog`lik muhim ekanligi, bu yo`l bilan chet ellik sayyohlarni ko`proq jalb etish mumkinligi rejasini ishlab chiqish, ko`rgazmalar tashkil etish muhim deb o`ylayman. Buxoroda hunarmandlar mahallasini qayta tashkil etish yo`li bilan sayyohlarni qiziqtirish va u yerda uch-to`rt kunlik ekskursiya tashkil etish. Hunarmandlar mahallasida birinchi navbatda Buxoro tarixini, an`analarini, udumlarini o`zida jamlagan muzey tashkil etish zarur.

Mahallada milliy bayramlar, turli xil xalq o`yinlarni tashkil etish, milliy oshxonamiz ya`ni milliy taomlarimizni tayyorlab ularning ko`nglini xushnud etish, ularga qanday mehmondo`st xalq ekanligimizni ko`rsatish zarur. Undan keyin ular o`zlari qiziqqan mahalladagi ustaxonalarga borib, ularning yaratilishi bilan yaqindan tanishishadi, o`zlari ham o`rganish imkoniyati bo`ladi.

Misol uchun kulolchilik ustaxonasiga borib ular ham kulolchilik mahsulotlarini tayyorlashlari uchun imkoniyatlar yaratib berish yo`li bilan ularni qiziqtirish kerak. Bu o`z navbatida keladigan sayyohlar bilan hunarmand ustalari bilan bevosita aloqa o`rnatiladi. Ustaxonalarda sayyohlarning istak-xohishlari bilan mahorat darslari (master class) o`tilib ularning hududda qiladigan sayohati kunlari uzaytiriladi. Sayyoh mahorat darslarida hunarmandchilik san`ati tarixi, hunarmandchilikka oid bo`lgan voqea va afsonalar, hunarmandchilik mahsulotlarini tayyorlash jarayonlari, ustaning oilasi, uning hayoti, turmush tarzini ham kuzatib borishiga imkoniyat

yaratiladi. Shu bilan birga sayyoh o`tagan mahorat darslaridagi bilimlari asosida tur firmalar bilan kelishgan holda, sayyohlar o`rtasida har xil bellashuvlar va musoboqalar uyushtirish ham mumkin.

Turli hunarmandlar ustaxonalarida ekskursiya uyushtirganlaridan so`ng, ular mahallada o`tkaziladigan bayram tadbiriga borishadi. U yerda har xil spektakllar, xalq o`yinlari, folklyor, raqs, kurash, dorbozlar o`yini, qo`chqor uyushtirish musoboqalarini shohidi bo`lishlari mumkin. Milliy taomlarimizdan bahramand bo`lishlari, ularni o`zlari tayyorlashlari imkoniyati bo`ladi. Osh pishirish bo`yicha musobaqa tashkil etish, ularni baholash, g`oliblarni hunarmandchilik mahsulotlari bilan taqdirlash kabi interfaol ishlar olib borib ularda unutilmas ta`assurotlar qoldirish kerak. Qiziqishlari orttirib yana sayohatga chiqqanlarida bizning yurtimizga tashrif buyurishlari, boshqalarga aytib ularni qizitirishlariga, an`ana va udumlarimizni, hunarmandchiligimizni dunyoga tanitishga erishishimiz kerak.

Bundan tashqari, hunarmandlar shaharchasida har bir hunarmand o`zining to`garak faoliyatini ham yo`lga qo`ysa maqsadga muvofiq bo`lar edi.

Bu to`garak asosan imkoniyati cheklangan bolalar hamda kam ta`minlangan bolalar jalb etiladi. To`garak bepul o`z faoliyatini boshlaydi. Usta hunarmandlarga unga ajratilgan joyning bir qismida to`garak o`taydigan ish xonasiga va ikkinchi qismida esa galereya ochiladi. Bu galereyada bolalar yaratgan mahsulotlar joylashtirilib boriladi. Albatta, bu kabi galereya Buxoroga tashrif buyuradigan sayyohlar e`tiborini chetda qoldirmaydi. Galereyadagi mahsulotlar sayyohlarning juda katta qiziqishlari bilan sotib olinadi va bu tushgan mablag`lar imkoniyati cheklangan hamda kam ta`minlangan bolalarga ajratiladi.

Bu albatta, xorijiy sayyohlarning qiziqishlari oshib mamlakatimizga bo`lgan tashriflar 2-3 baravar oshishiga olib keladi, bundan tashqari ijtimoiy muhit yaxshilanadi hamda davlad budjetining oshishiga ham olib keladi.

## Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, hunarmandchiligimiz tarixini o'rganib chiqib, ajdodlarimizdan nechog'lik muhim va katta meros qolganligiga amin bo'ldim. Ularning hunarmandchiligimizni rivojlantirishda ko'rsatgan jonbozliklari tahsinga sazovor. Biz bu ulkan merosni asrab avaylashimiz, ulardan oqilona foydalanishimiz kelajak avlodning burchidir.

Xalq hunarmandchiligi O'zbekistonning muhim ma'naviy meroslaridan biri sanaladi. U mahalliy aholi qoniga shunchalik singib ketganki, ularning turmush tarzlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Davlat rahbarlari uning davlat rivojidadagi muhim o'rnini ham bir necha bor ta'kidlab o'tishgan.

Hunarmandlar jamiyatda o'z o'rinlarini egallashlari, hunarmandchilik ishlarida barcha shart-sharoitlar mavjud bo'lishiligi, hamda turizm sohasida aholi bandligini oshirish va davlatimizning iqtisodini rivojlantirish uchun O'zbekistonda mustaqillik yillarda hunarmandchilikning keyinchalik rivojlanishi uchun zarur choralar ko'rib kelinyapti.

Hozirgi paytda davlatimiz tomonidan hunarmandchilar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar Buxoro shahar va tumanlarida hunarmandchilikning izchil rivojlanishiga olib kelyapti.

Shular bilan bir qatorda, hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishda ba'zi bir muammolar haligacha mavjud.

Keyingi yillarda suvenir va hunarmandchilik mahsulotlari qo'shni mamlakatlar: Hindiston, Xitoy, Arab mamlakatlarida juda tez suratda rivojlanib bormoqda. Bu mahsulotlarning Buxoroga yoki umuman oladigan bo'lsak, O'zbekistonga hech qanday aloqasi yo'q. Biroq, yosh hunarmandlar tomonidan tayyorlanilayotgan uncha qimmat bo'lmagan mahalliy hunarmandchilik mahsulotlari o'zining raqobatbardoshligi bilan bahslasha oladi va region turizmini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Suvenir bozorini rivojlantirish uchun avvalo barcha shu sohaga qiziqishi bo'lgan davlatlar bilan hunarmandchilikda zarur izlanishlarni olib borish kerak.

Bizning fikrimizcha, mazkur izlanishlar maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

1. “Hunarmand” uyushmasining veb-saytini yaratish va takomillashtirish;
2. Mavjud suvenir va hunarmandchilik mahsulotlari xususiyatlarini oʻrganish;
3. Buxoro va boshqa viloyatlarda hunarmandchilik mahsulotlariga boʻlgan ehtiyojni hamda ularning bozorini oʻrganish;
4. Anʼanaviy hunarmandchilikda mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda mahsulotlarning turizm bozorida turgan oʻrnini oʻrganish;
5. Hunarmandchilik sohasida mavjud yoʻnalishlarni oʻrganish, Buxoro viloyatida mazkur sohada yangi hunarmandchilik yoʻnalishlarini yaratish hamda mahalliy rasmiylarni ularni qoʻllab quvvatlashga jalb etish;
6. Regiondagi tur-biznes va turizm industriyasidagi liderlardan hamda aholi orasida hunarmandchilik mavzusidagi zarur soʻrovnomalarni oʻtkazish;
7. Qoʻshni viloyatlarda (Samarqand, Toshkent, Xiva) suvenir mahsulotlari ishlab chiqarish bozorini oʻrganish;
8. Hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarilayotgan hamda sotadigan joylarda xorijiy turistlar va sayyohlardan shu soha asosida anketali soʻrovnomalar olish;
9. Suvenir mahsulotlarini reklama qiluvchi korxonalar yaratilishining choralarini koʻrish;
10. Buxoroda “Hunarmand” uyushmasi va “Tadbirkor ayol” assotsiatsiyasida kichik boʻlimlar yaratish orqali mamlakatda suvenir mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi hunarmandlar oʻz mahsulotlarini rivojlantirishlari uchun zarur qulayliklarni yaratish;
11. Hunarmandlar ishlab chiqargan mahsulotlarni sotish uchun elektron magazinni tashkil etish.

Regionda suvenir sohasidagi mavjud muammolarni qarab chiqadigan boʻlsak, mahsulotning marketologlar nazariyasidan kelib chiqqan holda mavjud emasligi, hunarmandchilik sohasidagi ustuvor yoʻnalishlarga eʼtiborning kamligi, mahsulotlarni ishlab chiqarish, qadoqlash va ularning bozor munosabatida yengil-yelpi sotilishi hisoblaniladi.

- Xorijiy suvenir mahsulotlarni uzluksiz import qilinishi;
- Viloyatda suvenir brendining va suvenir marketingining yo'qligi;
- Xorijiy sayyohlarga arzon suvenir mahsulotlarini sotish;
- Hunarmandchilik mahsulotlarining ko'p hollarda turistlar didiga mos kelmasligi.

Suvenir mahsulotlarini rivojlantirishning foydali tomonlarini baholash uchun turizm bozori rivojlanishining quyidagi tamoyillarini aytib o'tish joizdir:

- Aholining texnologik bilimlarini oshirish, suvenir mahsulotlarini internetda qidirish va sotib olishlarini rivojlantirish;

- Yangi noan'anaviy turizm mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojni hisobga olgan holda ularga yuqori darajali qulayliklarni yaratib, ishlab chiqarishni boshlash;

- Turizmning boshqa sohalari ham rivojlana boshlashi;
- Biznes turizm hamda congress-ko'rgazmali turizmga faol rivojlanishi;
- Tashqi turizmning rivojlanishi;
- Buxoroda asosiy bozorning yaratilishi – xorijiy bozor.

Suvenir mahsulotlariga bo'lgan umumiy ehtiyoj iste'molchilarning aynan turli guruhlariga qaratilishi lozim. Ko'p talab qilinadigan klassik suvenir mahsulotlari sanalgan: sumkalar, mobil telefonlar uchun qoplamalar va turli xildagi magnitlar hisoblaniladi

Iste'molchilar ko'p talab qiladigan suvenir mahsulotlariga bo'lgan talablar: sotib olinayotganda suvenirning aynan Buxorodan ekanligini bildirish uchun Buxoro rasmini unda tushirilishi yoki yozilishi bir necha bor kuzatildi.

Suvenir mahsulotlarga bo'lgan umumiy talablar:

- An'anamizdan yiroqlashmagan holda yangi va zamonaviy mahsulotlar ishlab chiqarish;

- Suvenir mahsulotlarda o'ziga jalb qiluvchi xususiyatlarga e'tiborni qaratish;
- Xilma xillilik (suvenir mahsulotlarining keng turlari);
- Ishlab chiqaruvchi korxonaning(hunarmandning) yaratgan mahsulotidagi ajoyib dizayn, chiroyli qadoq hamda yorlig'i;
- Ishlatilgan xom-ashyoning tabiiy bo'lishiligi;
- Qulay va turli xil funksiyaliligi;

- Suvenir mahsulotda biror afsona yoki mifning mavjudligi;
- Suvenir mahsulotning o'z brendi bo'lishligi;
- Narx jihatdan uncha qimmat bo'lmasligi va hamma uchun hamyonbop bo'lishligi.

Shuni aytib o'tish kerakki, suvenirlarni rivojlantirishdagi marketingga, aniqlikka hamda e'tiborning aynan shu yo'nalishiga qaratilishi uchun quyidagi usullar qo'llanilishi mumkin:

- nomenklatura bo'yicha suvenir mahsulotlar ishlab chiqarishdagi cheklovlar – faqat Buxoro va unga yaqin aholi turar joylarida sotib olsa bo'ladigan, 3-6 ta dan ko'p bo'lmagan mahsulotlar ishlab chiqarish;

- suvenirlarda miqlar mujassamidagi cheklovlar – umumiy qilib olganda 2-3 tadan ko'p bo'lmagan miqlar va afsonalar ni o'zida mujassam etgan bo'lishi kerak hamda bu afsonalar doimo chet tillarida tarjima qilib borilishi kerak;

- suvenir mahsulotlarining ikki asosiy yo'nalishlarida (“Yuqori daraja”, “O'rta daraja”) xos dizayn ishlab chiqish, xos rasmlarni o'ylab topish, ranglar uyg'unligini oshirish bilan birga ularning rastalarda joylashtirilishiga ham e'tiborni qaratish lozim.

Yana bir bor shuni aytib o'tishim joizki, oldingidek “turistlar kelaveradi, savdo bo'laveradi” degan tushuncha edni yo'q. Shu narsa aniqki, hozirda turizm sohasidagi eng mashhur va katta korxonalar vakillari ham o'z ishchilarini har besh yilda tayyorlov kurslaridan o'tkazishyapti va mahsulotlarini har davrning talablariga javob beradigandek ishlab chiqarishyapti. Hozirda butunjahon turistik hamjamiyati hamda YUNESKO tomonidan “Ipak yo'lining tarixiy-an'anaviyligi sari” loyihasi ishlab chiqilgan. Mashhur olimlar nazariyasi asnosida Ipak yo'lining asosiy savdo-sotiq shaharlaridan biri hisoblangan bizning shahrimizga ham endilikda xorijiy sayyohlarning kelishi oshishi kutilmoqda. Shuning uchun xorijiy sayyohlar talablarida javob bera oladigan sifatli va an'anaviy, milliyligimizni yo'qotmagan hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishga hozirdan bel bog'lashimiz zarur.

## **Annotasiya**

Bukhara State University Tourism faculty “In the field of forming and managing hotel industry” 3 – 1MX 13 group graduate student Dilbar Rasulova Nodirovna`s written Annotation to the theme “The influences of handmade products in the process of developing the regional tourism”

The effect of handmade products in developing regional tourism is vast. To elaborate this insight thoroughly, it is crucial to point out that handmade products are often accompanied or else often understood as souvenirs of modern world that are bought by foreign visitors before going back to their home. So what are souvenirs? What viewpoint holds onto them?

A souvenir is a thing that travels in time. They were used before, say centuries ago, and we are using them now, and we will still use them in the future too. Because they are something that we treasure in our homes, our bags, and our pockets. They bear in remembrance remote places and times or past events. As “animated objects”, they are able to trigger our souls. That’s why we are so closely related to souvenirs. The word souvenir is closely tied to tourism and travelling and the borderline to merchandising articles is blurred. The intersection of personal memory, product design and destination marketing along with the way of developing regional tourism is the subject of this paper. It examines travel souvenirs as a means of destination marketing from a design perspective that influences tourism in a better way. Thus, it focuses on the strategy of developing regional tourism via handmade products and especially on how different types of souvenirs; the so-called non-declared souvenirs, i.e. shells, sand, stones or place-name signs will boost the tourism economy. The types of souvenirs mentioned above are ranking quite high in popularity at recent times by the way. So this paper is based on an ongoing research project carried out by me, Dilbar Rasulova, with native commercial partners. The title “The influences of handmade products in the process of developing the regional tourism” indicates the project focus. The results aimed for are twofold: On one hand, new souvenir products for specific destinations will be developed, on the other hand, a framework for souvenir design in tourism will be generated. Besides these, ways of handmade

product developing will be discussed so they could effect regional tourism in a better manner. Along with these, all types of handmade products that are being produced in Bukhara will be described here as thoroughly as possible so then it could make it easier to decide which types of souvenirs would better help regional tourism to develop. So lets go back a little to about souvenirs again.

Souvenirs are probably as old as travelling. They are the material outcome of cross-cultural encounter due to trade, pilgrimage and sightseeing. Ever since humans started to visit places far from home, they brought back material token from those journeys. Miniatures of Artemis' temple in Ephesus, one of the Seven Wonders of the World, count among the earliest examples of industrially produced souvenirs; Greek writers mention the presence of souvenir retailers near famous and therefore frequently visited sights. Cultural tourism with all its consequences is not an invention of our times: "As early as the Hellenistic era (ca. 300 BC), antique sources confirm that travelers broke off little pieces of statues or buildings in order to take them home as souvenirs. The antique patriarchs of the art were forced to consider how the plundering could be stopped. So they invented surrogate figures of clay and loam. In order to protect the originals, they forged them, and sold them piece by piece. Each epoch produced its own travel cultures and related souvenir styles. Still, some characteristics of travelers' token remain unchanged for centuries as we will see further on. Souvenirs of today's world are quite predictable these days. Of course there are souvenirs such as a symbolic shorthand of Eiffel Tower in Paris or The Statue of Liberty in New York. They represent their origins if to be more specific. Well, in terms of Bukhara, there are many types of handmade products, and you can find them easily in our bazaars these days. They are mostly the locally made t-shirts, pictures of historical architectures such as Kalon Mosque and other historical buildings that we have here in our city. Bukhara goes back 4 thousands of years and it has a long and great history. Along those years different monuments were built and saved for future generations. Watching them on TV is one thing, but seeing them practically breathtaking I believe because they are impressively high and that's what pulls foreign visitors to them like a magnet. So souvenirs like pictures of them are

quite common here in the city. Moreover, there are little statues of those historical monuments as well, statues of Ark and Kalon Mosque are the best of them.

Since antique times, travel and souvenir industry are inseparable and the commercial relevance of souvenir objects is quite high. According to recent research American Tourists, for example, spend about 33% to 56% of their travel budget on shopping and a good part of it on souvenirs. For sure, the sales volumes on souvenirs affirm their economic importance. That's why I think handmade products are taken seriously when it comes to regional tourism as they can highly benefit it in many ways. Souvenir industry is developing high rates here in Bukhara as well, as local officials are starting to understand the importance of handmade products on tourism economy, and now many researches are being done towards handmade products in Bukhara. Researches such as finding out the most popular handmade products of Bukhara that tourists are interested in, and making local handicraftsmen focus and produce more of those products. Besides that government officials are now working hard to implement any other thoughts about handmade products in Bukhara, there is now a body that learns tourists taste of souvenirs so it could help better meet their needs in the future. For that they are taking into account the design of souvenirs, the branding issues of handmade products and other factors that attracts the most tourists.

Well of today, handmade products comprise a very important component of Bukhara's regional tourism strategy. Crafts reflect our traditions and our diverse heritage. Tourists today want to learn about Bukhara through participation, often through crafts. They are also looking for authentic reminders of their visit, something that is evocative and meaningful. They want to share their experience with their friends and family by bringing them a little piece of Bukhara. Handcraft related activities, such as shopping, visiting artisan workshops, and festivals, have the potential to add a day to a typical tourist's stay in Bukhara. Such activities mean additional revenue for hotels, restaurants, tour operators, as well as income for handcraft-related businesses. Bukhara has many beautiful and interesting handcraft traditions that represent the city's unique culture and history. Significant investment has been made to continue our traditions and to generate income

from such activities. This sector needs to be better organized though, product designs need to meet ever changing market demand, quality needs to be consistently strong, and productivity must increase. We must also help our young people understand that a viable future lies in handcraft-related initiatives, be they producers, managers, designers, or traders. From these perspectives it is possible to improve the quality of handmade products here in Bukhara so that they can be bought by foreign visitors again and again. Bukhara itself is a open-air museum as it is all about historical buildings, monuments, traditions and rituals here. Almost all historical monuments are on the list of UNESCO World Cultural Heritage. These are, of course, made to improve people`s interest on them, make younger generation know about their great history. Not only Bukhara, but other regions such as Samarkand, Khiva, Shakhrisabz and others have their unique history as well and they all play an important role in overall national history of Uzbekistan. The improvements that are done so far are literally related to our first president Islam Karimov as he supervised all these works done and now because of this not only younger generation of ours, but every single person in Uzbekistan respects and kindly preserves our historical monuments for the future

So it is generally possible to improve handmade products of Bukhara. This paper studies the development of the handcraft industry in Bukhara and represents a comprehensive effort to bring needed attention to the sector in order to increase sales, income and employment as a result of strengthened access to the regional tourism market. This graduate work is also based on the assumption that there is a natural link between handcrafts and tourism and that there is mutual advantage in building and promoting one sector to support the other. Handcraft sales increase family incomes and contribute to cash economies throughout communities in Bukhara. Related activities, such as visits to market areas, production centers and artisan villages, can add a day to a travel itinerary, spreading benefits throughout the tourism industry. Tourism providers, such as hotels and restaurants, can include crafts in common area and guest room decor, thus contributing to tourists` cultural experience and stimulating sales.

This graduate work will point out every single type of handmade products that are being produced in Bukhara, and will give advices and studies a strategy on how to improve them to help to develop regional tourism. It addresses current challenges to the handcraft sector in Bukhara and provides a strategy to strengthen and energize the sector and to better meet the needs of the tourist market. There a number of existing shortcomings in the handcraft sector in Bukhara that limit market potential, including:

- lack of coordination on a national level which leaves the sector fragmented and poorly regulated;
- an inconsistent supply of quality raw materials, most of which are imported;
- stale designs that do not meet market potential;
- reliance on inefficient production methods that keeps output low and costs high;
- poor and inconsistent quality control;
- weak understanding of the marketing process;
- poor market access;
- competition from inexpensive imports;
- lack of private sector interest or ability to promote products made in Bukhara;
- lack of a Bukhara craft identity;
- a downward trend in the number of people interested in working in the sector, especially among young people;
- inability to access credit;
- and, a need for legislation to regulate and support the sector.

I will address these challenges and provide a framework to revitalize the handcraft sector. A national coordinating body should be created to implement this strategy by providing assistance to the sector through:

- regulation;

- training;
- a national branding campaign;
- facilitation of access to finance;
- development of data bases to improve overall information on the sector; and,
- advocacy.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining farmoni "Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 y.
2. Sh.M.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasining Prezidenti farmoni "O'zbekiston Respublikasi sayyohlik sohasini rivojlantirishni tezlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2016 y.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. -T.: O'zbekiston. 2003 y.
4. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi qonuni. – O'zbekistonning yangi qonunlari. T.-22 – T.: Adolat, 2000. b.131-140
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999 - yil 20 - avgustda qabul qilgan "Turizm to'g'risida"gi qonun.
6. Karimov I.A. 2013 –yil 18- yanvardagi qarori: "2012-yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlari va 2013-yilgi iqtisodiy dasturning asosiy ustuvor vazifalari to'g'risida".
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekturizm" MKsining tashkil topishi" to'g'risidagi PF-447 sonli farmoni. 27-iyul 1992-yil. //Xalq so'zi.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Buyuk Ipak yo'li" ni qayta tiklashda O'zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va Respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirla to'g'risidagi" PF-1162 sonli farmoni.//Xalq so'zi, 1995y., 3-iyun.
9. I. Karimov O'zbekiston XXI asrga intilmokda. :O'zbekiston, 1999y.  
O'zbekiston Respublikasining «Turizm to'g'risida»gi qonun // «Xalq so'zi» gazetasi, 1999y.
10. Aliyeva M.T., Umarjonov A. «Turistik mamlakatlar iqtisodiyoti»  
T: «Moliya» 2005 y.
11. Axmedov X.I, Allabergenov A.A. «Turizm faoliyatini tashkil etish» T: 2004y.
12. Jo'rayeva Z.M. "Sopol o'yinchoqlarning sehrli olami " T: 2012y.
13. "O'zbekiston Milliy Ensiklopediasi" 2006y. 104-110b.
14. Buxoro Hunarmand zebu zarlari, Toshkent "O'zbekiston", 2017y.

15. P.A Goncharova “Buxoro zardo`zlik san`ati”, G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti T: 1986y.
16. Козырев В.М., Зорин И.В., Сурин А.И. и др. Менеджмент туризма. Экономика туризма. Учебник (серия менеджмент туризма) (ГРИФ). - М.: Финансы и статистика, 2004. - 253 с.
17. Александров А.Ю. Международный туризм. Учеб. Изд. Гриф. Мо. - М.: аспект. Пресс, 2004. - с. 400
18. Сенин В.С. Организация международного туризма. - М.: Финансы и статистика, 2004. - 400 с.
19. Гуляев В.Г. Правовое регулирование туристской деятельности. - М.: Финансы и статистика, 2003. - 304 с.
20. Янкевич В.С. Маркетинг в гостиничной индустрии и туризме. - М.: Финансы и статистика, 2003. - 415 с.
21. Валдайцев С.В., Воробьев П.П. Инвестиции. Учебник. - М.: ТК Венби, издательство Проспект, 2003. - 300 с.
22. Мирзаев Р. Туристические жемчужины Узбекистана. - Т.: Ипак «Шарқ», 2005. - 38 с.
23. Бутуров И.Н. Маркетинг и менеджмент иностранного туризма. - М.: Финансы и статистика, 2003. - 107 с.
24. Александрова Т.Л. Некоторые черты современного ремесленничества в России / Т.Л. Александрова // Возрождение ремесленничества в Уральском регионе: социальные предпосылки, проблемы и пути их решения: сборник научных статей / Екатеринбург: Изд-во Рос. гос. проф.-пед. ун-та, 2010.С.5–14.
25. Водянова И.Н. Новая ремесленная экономика / И.Н. Водянова // Общество и экономика.-2011.-№-11–12.- С.208–212.
26. Гончаров С.З. Креативность ремесленной деятельности / С.З. Гончаров // Третьи Худояровские чтения. Нижний Тагил: Медиа-Принт, 2012. С. 14–16.
27. Гавриленко-Головина Е.Н. Волшебный мир разноцветный лент // Ремесло

- и профессиональное обучение на Енисее: традиции и новации: мат-лы регион. семинара / под общ. ред. М.И. Лесовской. – Красноярск, 2016. –С. 21-24.
28. Куличкина С.А. Профессиональное обучение: изменения диктуют условия жизни // Ремесло и профессиональное обучение на Енисее: традиции и новации: мат-лы регион. семинара / под общ. ред. М.И. Лесовской. – Красноярск, 2016. – С. 25-30
29. Харитонович Д.Э. Ремесло. Цехи и миф // Город в средневековой цивилизации Западной Европы. Т. 2. — М.: Наука, 1999. — С. 118.
30. Чупина И.П. Влияние ремесленничества на культурный потенциал народа / И.П. Чупина // Материалы VII Международных Ильинских чтений «Нравственный путь развития России» - Екатеринбург, 2009. С. 173 – 179.
31. World Economic Forum, “The Travel & Tourism Competitiveness Report”, 2011
32. Irmatov M.M. Alieva M.T. va boshqalar Turizmni rejalashtirish. Toshkent, 2005. -167 b.
33. Blundell, V. (1993). Aboriginal empowerment and souvenir trade in Canada, *Annals of Tourism Research*. 20, 64-87.
34. Deitch, L. I. (1977). The impact of tourism upon the arts and crafts of the Indians of the Southwestern United States. In V. L. Smith (Ed.). *Host and guests: The anthropology of tourism* (pp. 173-184). Philadelphia: University of Pennsylvania.
35. Eadington, W., & Redman, M. (1991). Economics and tourism. *Annals of Tourism Research*. 18, 41-56.
36. Jansen-Verbeke, M. (1990). Leisure + shopping = tourism product mix. In G. Ashworth & B. Goodall (Eds.), *Marketing tourism places* (pp. 128-137). New York: Routledge.
37. Jansen-Verbeke, M. (1991). Leisure shopping, *Tourism Management*. 12(1), 9-14.
38. Kean, R., Littrell, M., Baizerman, S., Maupin, W., Niemeyer, S., Reilly, R.,

- Stout, J., & Gahring, S. (1991). Tourism and craft marketing: Assessing the tourist industry system. In 1991 Proceedings of the International Textiles and Apparel Association (p. 155). Monument, CO: International Textile and Apparel Association.
39. Littrell, M., Reilly, R., Stout, J., Kean, R., Niemeyer, S., Baizerman, S., & Gahring, S. (1989). Tourism and craft marketing: Producers, retailers, and consumers. Research proposal funded by the North Central Regional Center for Rural Development, Iowa State University, Ames, IA
  40. Balakrishnan, M.S. (2009). Strategic branding of destinations: a framework. *European Journal of Marketing*, 43(5/6), 611-629
  41. Gordon, B. (1986). The souvenir: Messenger of the extraordinary. *Journal of Popular Culture*, 20(3), 135-146.
  42. Swanson, K.K. & Horridge, P.E. (2006). Travel motivations as souvenir purchase indicators. *Tourism Management*, 27, 671-683
  43. Morgan, N. & Pritchard, A. (2005). On souvenirs and metonymy: Narratives of memory, metaphor and materiality. *Tourist Studies*, 5(1), 29-53
  44. Teague, K. (Eds.). (2000). *Souvenirs: The Material Culture of Tourism*. Aldershot, Burlington, Singapore, Sydney: Ashgate.
  45. Widmayer, P. (1991). Zwischen Kitsch und Kunsthandwerk - Souvenirs, eine Gestaltungsaufgabe für Designer? In Design Zentrum Bremen (Ed.), *Die innoventa-Musikanten. Wie die Bremer Stadtmusikanten unter die Designer ielen.* (pp. 104- 108). Bremen: Worpsweder Verlag.
  46. Swanson, K.K. & Horridge, P.E. (2006). Travel motivations as souvenir purchase indicators. *Tourism Management*, 27, 671-683
  47. Kim, S. & Littrell, M.A. (1999). Predicting souvenir purchase intentions. *Journal of Travel Research*, 38, 153-162
  48. Peach, A. 2007. Craft, Souvenirs and the Commodification of National Identity in 1970's Scotland. *Journal of Design History*. 20:243-257.
  49. World Tourism and Travel Council, 2009, [www.wttc.org](http://www.wttc.org)
  50. [http://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact\\_id=540166](http://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=540166)

51. <http://www.e-unwto.org/doi/book/10.18111/9789284412327>
52. <https://en.wikipedia.org/wiki/Handicraft>
53. <http://www.handicraftsinindia.in/>
54. <http://handicrafts.nic.in/>
55. <http://arsenalhandicraft.com/>
56. <http://www.mmtimes.com/index.php/national-news/4521-handicraft-industry-boosted-by-tourism.html>
57. <http://www.sabahtourism.com/destination/handicraft-market>
58. <http://www.mmtimes.com/index.php/national-news/4521-handicraft-industry-boosted-by-tourism.html>
59. <http://www.vilnius-tourism.lt/en/what-to-see/places-to-visit/handicraft-workshops/>
60. [http://www.uni-weimar.de/projekte/souvenir/e\\_prj.html](http://www.uni-weimar.de/projekte/souvenir/e_prj.html)
61. <http://www.worldamberroad.travel/ru/objects/proekt-baltiyskij-aantarnyj-put-j-nasledie-turizm-i-remeslo>
62. <http://www.vilnius-tourism.lt/en/what-to-see/places-to-visit/handicraft-workshops/>
63. <https://tpprf.ru/ru/interaction/committee/komtur/news/179154/>
64. <http://www.visituzbekistan.travel/sightseeing/tashkent/shopping/souvenirs/>
65. <http://www.alamy.com/mediacomp/imagedetails.aspx?ref=ADGGYF>
66. [https://orexca.com/uzbekistan\\_shopping.shtml](https://orexca.com/uzbekistan_shopping.shtml)
67. <https://www.alibaba.com/countrysearch/UZ/handicrafts-souvenir-supplier.html>
68. <http://www.phnompenhpost.com/business/new-brand-local-handicrafts>
69. <http://www.manzaratourism.com/uzbekistan/souvenirs>
70. National Confederation of Crafts and Small and Medium-Sized Enterprises of Italy // <http://www.cna.it/eng/craftsector.htm>